



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 9-may, seshanba,
54-55 (23.775-23.776)-son

**KUN
HIKMATI**

Ustozni
yo'qlashni,
do'stni asrashni,
oilani suyushni,
noz-ne' matni
tejjashni odat
qiling

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

MUDDATIDAN ILGARI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVINI TAYINLASH TO'G'RSIDA

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 110- va 128-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 66-moddasiga asosan:

- 2023-yil 9-iyul kuniga muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi tayinlansin.
- Mazkur Farmon O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasiga yuborilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

2023-yil 8-may

YANGILANGAN KONSTITUTSIYAMIZ UCHINCHI RENESSANSNI BARPO ETISH YO'LIDA MUSTAHKAM HUQUQIY POYDEVOR BO'LIB XIZMAT QILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari a'zolari, siyosiy partiyalar va jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvdagi nutqi

Hurmatli parlament a'zolari, siyosiy partiyalar va jamoatchilik vakillari!

Hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

Xabaringiz bor, shu yil 30-aprel kuni mamlakatimiz hayotida, hech shubhasiz, tom ma'nodagi ulkan tarixiy voqea bo'lib o'tdi. Birinchi marta umumxalq referendumida asosida yangilangan Konstitutsiyamizni qabul qilidik.

Referendumda qatnashgan fuqarolari-mizning mutlaq ko'pchiligi "Bu — mening Konstitutsiyam", deb g'urur bilan ovoz berdi.

Referendum keyingi yillarda xalqimizning siyosiy ongi, huquqiy madaniyati va dunyoqarashi naqadar yuksalganini amalda ko'rsatdi. Ushbu tarixiy tanlov orqali xalqimiz bundan olti yil oldin boshlagan islohotlarimizga katta ishonch bilan qarab, ularni to'la qo'llab-quvvatlashini yana bir bor namoyon etdi. El-yurtimizning ana shunday azmu qarori asosida davlatimizning va iqtisodiyotimizni bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratildi.

Bularning barchasi — millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir yurtodoshimiz "qilsa bo'lar ekan-ku", deb, o'z ro'zg'ori, oilasi misolida yurtimizda yuz berayotgan katta o'zgarishlarni yaqqol sezayotganidan dalolat emasmi?

Konstitutsiyamiz loyihasini muhokama qilishdan boshlab to uni qabul qilguncha bo'lgan davrda o'tkazilgan umumxalq muhokamalarida millionlab yurtodoshlarimiz faol va munosib ishtirok etdilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yangilangan Konstitutsiyamizning chinakam muallifi xalqimiz bo'ldi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Eng muhimi, endi islohotlarimiz yo'lidan hech qachon ortga qaytmaymiz, "inson — jamiyat — davlat" degan yangi tizim asosida faqat va faqat oldinga qarab boramiz.

Albatta, xalqimizning referendumdagi ovozi, bildirgan yuksak ishonchi barchamizga katta mas'uliyat yuklaydi, el-yurtimizni rozi qilish uchun bizni yangi maralarga undaydi, islohotlarni jadal davom ettirishda yanada katta kuch-g'ayrat va ilhom bag'ishlaydi.

Fursatdan foydalanib, o'zining yuksak fuqarolik burchini chin dildan ado etib, Asosiy qonunimizni qabul qilishda amaliy taklif va tashabbuslari, g'oya va fikrlari bilan faol ishtirok etgan ko'pmillatli, mard va olijanob xalqimizga ta'zim qilaman.

Shu bilan birga, jamiyatimizdagi yangilanish va o'zgarishlarni amalga oshirishda jonbozlik ko'rsatib, ezgu ishlarimizda bizni qo'llab-quvvatlab kelayotgan muhtaram nuroniyalarimiz, ilm-fan va madaniyat ar-

boblari, ziyolilarimizga, jonkuyar o'qituvchi-murabbiylar va shifokorlarimizga, iqtisodiyotimiz rivojiga yangi kuch berayotgan tadbirkorlarimizga, ishchi-xizmatchilar, mirishkor dehqon va fermerlarimizga, klasterlar xodimlariga, jamiyatimizning tayanch ustuni bo'lmish mahalla raislari, hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari, xotin-qizlar faollari va profilaktika inspektorlariga, kelajagimiz egasi bo'lgan azmu shijoatli yoshlarimizga, bir so'z bilan aytganda, O'zbekistonning barcha haqiqiy vatanparvarlariga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Ayni paytda xalq bilan muloqot qilib, uning fikrini olib, Asosiy qonunimizni takomillashtirishga o'z hissasini qo'shgan Konstitutsiyaviy komissiya a'zolariga, barcha deputat va senatorlar, siyosiy partiyalar vakillariga, qonun loyihasini xalqaro standartlar asosida ishlab chiqishda faol ishtirok etgan olimlar, mahalliy va xorijiy ekspertlarga, referendum jarayonlarini haqqoniy yoritib, o'zining xolis fikrlarini bildirgan barcha ommaviy axborot vositalari xodimlariga, xalqaro kuzatuvchilarga alohida tashakkurlar aytaman.

Aziz vatandoshlar!

Hech shubhasiz, xalqimiz o'z tanlovini amalga oshirib, yangilangan Konstitutsiya uchun ovoz bergan 30-aprel sanasi tariximizda unutilmas yorqin sahifa bo'lib qoldi. Aynan shu kuni ko'pni ko'rgan, hayot ma'nosini, tinchlik va inson qadrini chuqur anglaydigan el-yurtimiz demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalarga sadoqatini yana bir bor amalda tasdiqladi.

Qadim tariximizdan kelib chiqqan holda, ota-bobalarimizga xos ezgu qadriyatlarini ro'yobga chiqarish, ya'ni insonni ulug'lash, uning huquq va manfaatlarini ta'minlash, odamlarimiz bilan bamaslahat ish ko'rish biz uchun chinakam demokratiya namunasidir.

Xalqimizda "Birdamlik bor joyda ildamlik bor", degan dono naql bejiz aytilmagan. Chindan ham, o'zaro ahillik va hamjihatlik bo'lgan yurtda albatta, qut-baraka, taraqqiyot bo'ladi.

Bizning eng katta boyligimiz — O'zbekistonni o'zi uchun yagona Vatan deb biladigan ko'pmillatli buyuk xalqimizdir. Jonajon yurtimizda qaror topgan millatlararo do'stlik va ahillikni — mana shunday bebaho xazinamizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash barchamizning oliy burchimizdir.

Hurmatli yig'ilish ishtirokchilari!

Yangilangan Konstitutsiyamizning birinchi moddasida O'zbekiston — suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deb, qat'iy belgilab qo'yilgan tarixiy ahamiyatga ega. Xalqimizning xohish-irodasi bilan Asosiy

qonunda muhrlangan bu prinsiplar — mamlakatimizning taraqqiyot yo'li va taqdirini, uning kelajagini belgilab bergan ushbu "beshta ustun" hech qachon o'zgartirilmaydi. Dunyoda kundand-kunga yangi-yangi sinovlar, xavf-xatar va tahdidlar paydo bo'layotganini barchangiz ko'rib turibsiz. Eng nufuzli siyosatshunos va ekspertlar ham, "aql markazlari" ham jahonda sodir bo'layotgan hozirgi ziddiyat va to'qnashuvlar qachon va nima bilan tugashini aytay olmayapti.

Shunday murakkab vaziyatda, har bir ishimizda, qabul qilayotgan barcha qonun va qarorlarimizda faqat va faqat xalqimiz, Vatanimiz manfaatlari eng ustuvor o'rinda turishi shart. Buning uchun, birinchidan, ota-bobalarimizning asriy armoni bo'lgan, tengsiz va buyuk ne'mat — mustaqilligimizni asrab-avaylash, uni yanada mustahkamlash va kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirish barchamiz uchun hayot-mamot masalasi ekanini unutmashimiz zarur.

Bizning uch ming yillik davlatchilik tarixiga, boy va betakror madaniyatga ega bunyodkor xalqimiz bor. Qirq millonga yaqinlashib borayotgan bugungi O'zbekiston xalqining taqdiri va istiqboli, farovon hayoti uchun barchamiz mas'ul va javobgarmiz. Shu sababdan yurtimizda tinchlik va barqarorlikni asrash va mustahkamlash bundan buyon ham eng muhim vazifamiz bo'lib qoladi.

Shu maqsadda milliy xavfsizlikni ta'minlash, Qurolli Kuchlarimiz jangovar salohiyatini oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqamiz.

El-yurtimizning tinch-osoysiz hayotini ta'minlash uchun "xavfsiz shahar", "xavfsiz mahalla", "xavfsiz ko'cha" konsepsiyalarini jadal amalga oshiramiz. Buning uchun yangi tashkil qilingan "mahalladagi beshlik" tizimini davlat va jamiyat tomonidan har jihatdan qo'llab-quvvatlaymiz. Fuqarolararo totuvlik, millatlararo do'stlik va bag'rikenglik muhitini yanada mustahkamlash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Dunyodagi hozirgi murakkab vaziyatda tinchliksevar tashqi siyosatimizni davom ettirib, uzoq va yaqin davlatlar bilan do'stlik aloqalarini, barcha sohalarda o'zaro hamkorlikni rivojlantiramiz.

Biz mamlakatimiz suverenitetini yanada mustahkamlashda global iqlim o'zgarishi, oziq-ovqat, energetika, logistika bilan bog'liq xavf-xatarlar, suv taqchilligining salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha yangi tashabbus va dasturlar ishlab chiqib, hamkorlarimiz bilan birga faol ish olib boramiz.

(Davomi 2-sahifada) >>>



IKKINCHI JAHON URUSHI QATNASHCHILARIGA PREZIDENT TABRIGI YETKAZILDI

Davlatimiz rahbarining joriy yil 2-maydagi "Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, yurtimizda urush qatnashchilari va urush orti faxriylariga alohida hurmat-ehтиrom ko'rsatilmog'da.

Viloyat hokimi, harbiy-ma'muriy sektor rahbari Erkinjon Turdimov, Markaziy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni, polkovnik Farrux Ziyaboyev nuroniyalar, yoshlar va jamoatchilik vakillari bilan birgalikda bugun oramizda umrguzaronlik qilayotgan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari xonadonida bo'ldi.

Inson uchun eng katta boyluk — tinchlik va tani sihatlik, — deydi Samarqand shahridagi Xo'ja G'unjoiy mahallasida yashovchi Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Fazliddin Asliddinov. — Yaratganga shukur, bugun yurtimizda ana shu ikki muhim jihatga katta e'tibor qaratilmog'da. Biz, faxriylarga bo'lgan e'tibor ham shundan dalolat.

Ushbu fayzli xonadonda kechgan suhbatda viloyat hokimi Ikkinchi jahon urushi va mehnat fronti faxriylari davlatimizning doimiy e'tiborida ekanini ta'kidlab, urush qatnashchisiga samimiy minnatdorlik izhor etdi. Prezident tabrigini o'qib eshittirdi, pul mukofoti va sovg'alar topshirildi.

Viloyat hokimi va jamoatchilik faollari Samarqand shahrida yashovchi Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari Mixail Kolmogorov va Safiya Pogrebova xonadonlarida ham bo'lib, ular bilan dildan suhbatlashdi. E.Turdimov faxriylarga Prezidentimiz tomonidan yo'llangan tabriknii o'qib berdi.

"Butun insoniyat taqdiri xavf ostida qolgan suronli davrda tinch-osoysiz hayot, musaffo osmon, farzandlarimizning yorug' kelajagi uchun jasorat va matonat ko'rsatganingiz, tinch mehnat yillarida elu yurtimiz ravnaqi yo'lida fidokorona xizmat qilganingiz barchamiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun ibrat maktabidir", deyiladi tabrikda.

— Xotira va qadrlash kuni ya-

qinlashgan sayin xonadonimizdan mehmon arimaydi, — deydi M.Kolmogorov. — Turli tashkilotlardan vakillar kelib, hol-ahvol so'rayapti. Buning barchasi davlatimizning biz, faxriylarga g'amxo'rlik va e'tibori samarasidir. Bugun Prezidentimizning mening nomimga yo'llagan tabrigini olib, boshim ko'kka yetdi.

Samarqand tumanida istiqomat qiluvchi Ahad Ochilov ham Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan tabriklash uchun kelgan mehmonlarni ko'rib, quvondi. Asr bilan yuzlashayotgan otaxon yig'ilganlarga urush xotiralaridan gapirib berdi.

— 1942-yilda urushga otlandim. Maxsus tayyorgarlikdan so'ng safdoshlarim bilan tankchilar batalonida Shimoliy Kavkazda jangga kirgandik, — deydi Ahad bobo. — Uch yil qirg'inbarot janglarda ishtirok etdim. G'alabadan so'ng ham harbiy xizmatni davom ettirdim. Germaniyada 1949-yilgacha xizmat qildim.

Urushdan keyingi faoliyatini ta'lim-tarbiya sohasida olib borgan Ahad bobo bugun nevarayu chevara, evaralar davrasida izzat-ikromda ekanidan faxrlandi. Viloyat rahbari maxsus sovg'a hamda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga berilayotgan 18 million so'm pul mukofotini topshirdi.

Tuman, shahar hokimlari, sektor rahbarlari hamda jamoatchilik faollari Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarining xonadonlarida bo'lib, ularga Prezident tabrigini yetkazdi hamda esdalik sovg'alarini topshirdi.

Yuksak e'tibor va hurmatdan ko'ngli tog'dek ko'tarilgan faxriylar o'z minnatdorchiliklarini bildirdi, ko'rsatilgan e'tibordan mamnun bo'lib, yurtimizga tinchlik, osoysiztalik tilab duo qildi.

S. MARDIYEV,
A. ISROILOV (surat).

YANGILANGAN KONSTITUTSIYAMIZ UCHINCHI RENESSANSNI BARPO ETISH YO'LIDA MUSTAHKAM HUQUQIY POYDEVOR BO'LIB XIZMAT QILADI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Ikkinchidan, biz O'zbekistonni ijtimoiy davlat, deb e'lon qildik.

Mamlakatimizda 2 million 200 mingdan ziyod oilalar ijtimoiy ko'makka muhtoj. Aholimizning 55 foizi yoshlardan iborat.

Shu o'rinda bir masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Yangilangan Konstitutsiyamizda davlatning ijtimoiy majburiyatlari 3 barobar ko'paytirilmoqda. Bu raqamni aytish oson, lekin uni amalda ta'minlash uchun juda ko'p ishlashimiz zarur. Bunga davlat budjetidan har yili qo'shimcha 30-40 trillion so'm ajratish kerak bo'ladi. Buning hisobidan, har yili yuzlab yangi bog'chalar, maktab va shifoxonalar qurishimiz lozim.

Yoshlar siyosatini, ta'lim-tarbiya, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida yuqori bosqichga ko'tarish bo'yicha ham yangi imkoniyatlarni safarbar etamiz. Nuroniylar, yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan insonlar, alohida e'tiborga muhtoj aholi qatlamiga ijtimoiy xizmatlar ko'lamin yanada kengaytiramiz. Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar miqdorini muntazam oshirib boramiz.

O'zimizga savol beraylik nima uchun aholimiz referendumda bunchalik faol bo'ldi?

Nimaga ular islohotlarimizni qo'llab-quvvatlamoqda? Chunki Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarimizning qishloq va ovullardan tortib, poytaxtimiz mahalla va ko'chalaridagi ulkan bunyodkorlik va obodonchilik ishlarini o'z ko'zlari bilan ko'ryaptilar.

Birgina misol, o'tgan yildan boshlab "ochiq budjet" tizimini joriy etganimiz qishloq va mahallalardagi oddiy odamlarimiz kayfiyatiga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatganini hammamiz ko'rib, bilib turibmiz. Lekin odamlarimizning o'sib borayotgan talablarini qondirish uchun hozirgidan ko'ra ikki karra ko'p ishlarni bajarishimiz kerak.

Yaxshi bilasizlar, biz mamlakatimizda kambag'allik borligini tan olib, alohida dasturlar asosida uni qisqartirish bo'yicha katta ish olib bormoqdamiz.

Shu maqsadda aholi, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularning daromadini oshirish borasida "uchta daftar", ijtimoiy reest tizimini yo'lga qo'yib, salmoqli natijalarga erishdik. Lekin hali qiladigan ishlarimiz ham oz emas.

Bu borada odamlarimiz yangilangan Konstitutsiyadan, biz joriy etayotgan yangi tizimdan ko'p narsalarni kutmoqda.

Aholimizga munosib turmush sharoitlarini yaratish uchun, eng avvalo, iqtisodiy o'sishni ta'minlash zarur. Yalpi ichki mahsulotimiz hajmini hozirgi 80 milliard dollardan yaqin yillarda 160 milliard dollarga yetkazish uchun bor imkoniyatlarni ishga solishimiz kerak. Bu – aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmi 4 ming dollarga yetadi, degani.

Biz bundan buyon ham xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash, soliq ma'murchiligini yanada soddalashtirish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish borasidagi ishlarni jadal davom ettiramiz. Ayniqsa, qishloq va suv xo'jaligi, sanoat, energetika, transport, qurilish sohalariga katta-katta investitsiyalar jalb qilinadi.

Umuman, hukumat 1-avgustga qadar davlat o'ziga olgan har bir yangi majburiyat bo'yicha ularning mablag'lari, ijro mexanizmlari, bu masalada mas'ul vazirlik va hokimliklar hamda mutasaddilar aniq ko'rsatilgan alohida dastur ishlab chiqib, parlamentimizga kiritadi.

Uchinchidan, Konstitutsiyamizda ilk bor O'zbekiston Respublikasiga huquqiy davlat degan ta'rif berildi.

Bosh qomusimizda inson huquqlari kafolatlariga oid normalar ham 3 barobar ko'paytirildi.

Bu – avvalambor barcha sohada qonun ustuvorligi ta'minlanadi, degani.

Bundan buyon qonunlardagi noaniqliklar inson foydasiga hal bo'ladi.

Eng muhimi, "Qonun – muqaddas, har qanday holatda ham adolatni qaror toptirish shart!" degan qarash jamiyatning har bir a'zosi, ayniqsa, mansabdorlar uchun hayot qoidasiga aylanishi kerak.

Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish uchun sudlarning odil va mustaqil ish yuritishini albatta, amalda ta'minlashimiz zarur.

Shu maqsadda Asosiy qonunimizda hech kim sud qarorisiz 48 soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emasligi belgilandi. Erkinlikni cheklashga faqat sud qarori asosida yo'l qo'yilishi haqidagi qoida mustahkamlandi. Ayblanuvchiga o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik, ya'ni "sukut saqlash" huquqi birinchi marta alohida belgilab qo'yildi. Advokatlar maqomi oshirilib, ularning tergovchi va prokuror bilan teng vakolatga ega ekani qayd etildi.

Albatta, Asosiy qonunga kiritilgan bu ilg'or yangiliklarni amalda joriy etish oson bo'lmaydi, ko'p jamiyatlar bunday o'zgarishlarni faqat orzu qiladi. Buning uchun sud-huquq idoralarning kadrlar salohiyatini yaxshilash va moddiy-texnik bazasini mustahkamlashimiz zarur.

Eng muhimi, tergovchi, prokuror, sudya, advokatlarining bilim va malakasi, ma'naviy dunyosini yuksaltirish bilan birga, aholining ham huquqiy madaniyatini oshirish, hammamiz uchun dunyoqarashimizni o'zgartirish talab etiladi. Qanday og'ir bo'lmasin, bu ishlarni amalga oshirishni zamonning o'zi taqozo etmoqda.

To'rtinchidan, demokratik taraqqiyot yo'lini qat'iy davom ettiramiz.

Bosh qomusimizda bu maqsadga erishish kafolatlarini yanada kuchaytirdik. Bizga inson va biznesning og'irini yengil qiladigan, ularga sifatli xizmat ko'rsatadigan ixcham va samarali boshqaruv tizimi kerak. Ma'muriy islohotlarni aynan shu maqsadda boshladik. Birinchi bosqichda hukumat va vazirliklar ixcham qilinib, ularning ish uslubi o'zgartirildi. Navbatdagi vazifamiz – viloyat va tuman darajasida ham boshqaruv sifatini oshirishdan iborat.

Mening eng katta niyatim – odamlarni qiynayotgan muammolarni mahallaning o'zi yechadigan xalqchil tizim yaratish. Shu bois moliya, soliq, bandlik kabi idoralarning kamida 30 foiz vakolatlarini mahalla darajasiga tushirish mo'ljallanmoqda.

Shu bilan birga, yangilangan Konstitutsiyamizdagi o'zgarishlar bir qator siyosiy islohotlarni ham nazarda tutadi. Bu borada parlament faoliyatida muhim o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari amaldagi 5 tadan 12 taga, Senatda esa 14 tadan 18 taga yetkazildi.

Ayni paytda palatalarning vakolatlariga ham aniqlik kiritildi. Masalan, hukumatni shakllantirish, uning faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish masalalari Qonunchilik palatasining vakolatiga o'tkazildi.

Shu bilan birga, deputatlarimiz asosiy e'tiborni qonunlarning sifati va ta'sirchanligini oshirishga qaratadigan, ularning ijrosini samarali tashkil etishda hukumat bilan birgalikda qattiq ishlaydigan vaqt keldi.

Senatning faoliyati esa hududlar bilan bog'liq masalalarni hal etish, mahalliy Kengashlarga har tomonlama ko'maklashish, joylarda, ayniqsa, mahallalarda qonunlar ijrosini ta'minlashga yo'naltirilishi zarur.

Bularning barchasi, deputat va senatorlarimiz zimmasiga katta mas'uliyat yuklashi tabiiy, albatta. Endi ular pastga tushib, ko'proq odamlarimiz bilan uchrashib, ularning muammolarini eshitsu, vazirlar va hokimlar bilan birgalikda har bir masala bo'yicha aniq yechimlarni topsa, bundan umumiy ishimizga faqat foyda bo'ladi.

Bugungi kunda xalq ovozi va fikrini keng jamoatchilikka, davlat idoralari e'tiboriga olib chiqayotgan eng ta'sirchan kuch, bu – ommaviy axborot vositalari, jurnalistlardir.

Jamiyatimizdagi ochiqlik siyosatini izchil davom ettirish maqsadida ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligi, axborot olish, foydalanish va tarqatishga bo'lgan huquqlar qat'iy kafolatlanmoqda.

Shu bilan birga, so'z erkinligi, bu – mas'uliyat ham degani. Ya'ni, axborot makonida haqqoniylik va xolislik bosh mezon ekanini unutmasligimiz zarur.

Ayni paytda nodavlat tashkilotlarning rolini oshirish, huquqlarini kafolatlash orqali fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Beshinchidan, O'zbekiston – dunyoviy davlat va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Xalqimizning referendum orqali bildirgan xohish-irodasi, qat'iy tanlovi ham shu.

Bundan buyon ham millati, tili, dini va ijtimoiy keilib chiqishidan qat'i nazar, har bir fuqaroning vijdon erkinligi ta'minlanadi. Barcha diniy konfessiyalar erkin faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib beramiz.

Mamlakatimizda millatlar va konfessiyalar o'rtasida totuvlik va hamjihatlikni ta'minlash siyosatini izchil davom ettiramiz. Jamiyatimizda har qanday radikalashuvga, dindin siyosiy maqsadlarda foydalanishga hech qachon yo'l qo'ymaymiz.

Hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

Men Prezident sifatida ish boshlagan birinchi kundanoq "Biz xalqimizga xizmat qilgani kelganmiz. Biz xalqimizni rozi qilish uchun kelganmiz", degan gaplarni doim takrorlayman.

Biz islohotlarni boshlagan paytda, o'zimiz tasavvur ham qilmagan juda ko'p muammo va sinovlarga duch keldik. Ularga el-yurtimiz bilan birgalikda yechim topib, har bir masalani joyida hal qilib boryapmiz. Chunki yangilangan Konstitutsiyamizning ma'no-mazmuni, bosh maqsadi ham xalqimizning farovon hayot kechirishi uchun munosib sharoit yaratib berishdan iboratdir. Bu maqsad yo'lida qanchalik og'ir bo'lmasin, zarur mablag'larni, kerak bo'lsa, ortiqchasi bilan topib, barcha imkoniyatlarni ishga solyapmiz.

Xalqimizning o'zi – eng adolatli hakam. Men aminman, bugun yurtimizdagi har bir inson "hayotimda ijobiy o'zgarish bo'lmoqda", deb ayta oladi.

Bugun biz tarixning yanada mas'uliyatli va hal qiluvchi pallasida turibmiz. Mamlakatimiz taraqqiyotida mutlaqo yangi davrga qadam qo'yimoqdamiz. Chunki yangilangan Konstitutsiyamizni qabul qilish bilan biz Uchinchi Renessans uchun huquqiy poydevor yaratdik. Bugun xalqimiz intilayotgan ana shu buyuk maqsadni amalga oshirishga munosib hissa qo'shaman, degan har bir yurtdoshimiz, avvalo, ushbu poydevorga tayyib, harakat qilishi lozim.

Ayniqsa, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarishda, yoshlarimiz kelajagi uchun mustahkam zamin hozirlashda Asosiy qonunimiz ularga beqiyos imkoniyatlar ochib beradi.

Shu munosabat bilan, men bugun ikkita muhim farmonni imzoladim.

Birinchi farmon yangilangan Konstitutsiyamizni hayotga joriy etish, ijrosini ta'minlash uchun uning mazmun-mohiyatini xalqimiz o'rtasida keng targ'ib qilish bo'yicha aniq vazifalarni nazarda tutadi.

Shu ma'noda, Bosh qonunimizning har bir ban-

di va moddasini jamiyatimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun hayot qoidasiga aylantirish, bu borada ularning tushuncha va tasavvurlarini kengaytirish, har bir mahalla, ta'lim maskani, tashkilot va korxonada chuqur o'rganish maqsadida o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalar yaratish zarur.

Shu bilan birga, yangilangan Konstitutsiyaning 128-moddasida mamlakat Prezidentiga berilgan vakolatdan foydalanib, men ikkinchi muhim farmonni imzoladim. Unga muvofiq, yurtimizda muddatidan ilgari Prezident saylovi o'tkaziladi.

Bunday qarorga kelish uchun qanday obyektiv zarurat bor, degan savol tug'ilishi tabiiy, albatta.

Nima uchun, qolgan uch yarim yillik Prezidentlik muddatidan o'z tashabbusim bilan voz kechayapman? Chunki o'zingiz ko'rib turibsiz, Asosiy qonunimizga muvofiq, birinchi, hokimiyatning barcha bo'g'inlari isloh qilinib, ular o'rtasidagi munosabat va muvozanat jiddiy o'zgarimoqda.

Ikkinchidan, yangilangan Konstitutsiyamiz Prezident, parlament, hukumat, vazirlar, hokimlar oldiga kechiktirib bo'lmaydigan yangi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarni qo'yimoqda.

Uchinchidan, xalqimiz bizdan barcha sohalarida g'oyat muhim va dolzarb o'zgarish va islohotlarni kutmoqda.

To'rtinchidan, dunyoda va mintaqamizda keskin va murakkab jarayonlar hukm surayotgan hozirgi vaziyatda to'g'ri va samarali rivojlanish yo'lini izlab topish va uni amalga oshirish eng o'tkir va dolzarb masalaga aylanmoqda.

Shu munosabat bilan butun xalqimizga murojaat qilmoqchiman.

Aziz va muhtaram vatandoshlar, barchangiz ko'rib turibsiz, oldimizga bugun yanada ulkan marralar qo'yimoqdamiz.

Bundan buyon ham jamiyat va davlat hayoti, bugungi va kelgusi taraqqiyotiga oid har bir masala bo'yicha faqat va faqat sizlar, donishmand, bag'rikeng xalqimiz bilan bamaslahat ish olib boramiz.

Asosiy qonunimizda xalq – davlat hokimiyatining birdan-bir manbai, deb bejiz yozilmagan. Shu nuqtai nazardan, yangilangan davlat hokimiyati tizimida xalqimiz, yana bir bor aytaman, faqat xalqimiz o'zi ishongan rahbarga mandat berishi maqsadga muvofiq.

O'ylaymanki, bugungi mavjud sharoitda bu – eng to'g'ri va adolatli qaror bo'ladi.

Saylovlar qonunga to'la muvofiq holda, ochiq va oshkora tarzda o'tkaziladi. Bunda siyosiy partiyalar, Prezidentlikka nomzodlar yurtimiz tinchligi va uning ravnaqiga, xalqimiz farovonligiga xizmat qiladigan yangi g'oya va tashabbuslar bilan maydonga chiqadilar, deb ishonaman.

Qadri yurtdoshlar!

Shu o'rinda bir fikrni yana ta'kidlab aytmoqchiman: ko'zlagan marralarimiz qanchalik yuksak va murakkab bo'lmasin, ularga erishish uchun bizda barcha imkoniyatlar bor.

Buyuk ajdodlarimiz merosi, xalqimizning bunyodkorlik qudrati, intellektual va ma'naviy salohiyati, uning mehnatsevarlik va tadbirkorlik fazilati bu yo'lida bizga kuch-qudrat manbai bo'lib xizmat qiladi.

Ishonchim komil, sizlar bilan, butun xalqimiz bilan ezgu maqsadlarimizga albatta, yetamiz. Yangi O'zbekistonni barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, ahil va hamjihat bo'lib, birgalikda quramiz.

Mana shunday ulug' maqsad yo'lida hammangizga sihat-salomatlik, yangi yutuq va zafarlar, oilaviy baxt-saodat tilayman.

Yaratganning o'zi barcha olijanob ishlarimizda madadkor bo'lsin!

E'tiboringiz uchun rahmat.

ENERGIYA RESURSLARINI TEJASH UMUMMILLIY HARAKAT DARAJASIGA KO'TARILADI

8-may kuni xalq deputatlari viloyat Kengashining sakson beshinchi sessiyasi o'tkazildi. Sessiyani Kengash kotibiyati mudiri Z.Karimov boshqardi.

Deputatlar, dastlab viloyat aholisi va ijtimoiy soha obyektlarini 2023-yilda energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash yuzasidan belgilanadigan vazifalar to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishdi.

Ushbu masala yuzasidan "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati Samarqand hududiy filiali rahbari o'rinbosari U.Nazarov va boshqa mas'ullarning axboroti eshittildi.

Qayd etilishicha, yaqinda respublika ishchi guruhi tomonidan davlatimiz rahbarining 2023-yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash borasida viloyatda amalga oshirilayotgan ishlar o'rganilgan.

O'rganishlarda 2023-yilda viloyatda jami 574,1 mln kVt.soat elektr energiyasi va 376,5 million kub metr tabiiy gaz iqtisod qilish manbai aniqlandi. Viloyatda energiya tejamlilik va energiya resurslaridan oqilona foydalanish orqali belgilangan chora-tadbirlarni bajarish

natijasida elektr energiyasi iste'moli 12 foiz, tabiiy gaz iste'moli 15,9 foiz iqtisod qilinadi.

Bundan tashqari, 2023-yil uchun viloyatdagi har bir mahallaning elektr va gaz xo'jaligini 2023/2024-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorlash, quyosh panel-lari va quyosh suv isitish kollektorlari o'rnatish hamda boshqa texnik tadbirlar bo'yicha rejalari ishlab chiqildi.

Jumladan, 229 ta umumta'lim maktabi, 223 ta maktabgacha ta'lim, 71 ta sog'liqni saqlash muassasasi, shuningdek, 136 ta issiqxonaxo'jaligi, 4 ta g'isht ishlab chiqarish korxonasi, 4 ta sement zavodi hamda 6 ta ohak ishlab chiqar-

ish sexi tabiiy gazdan ko'mir yoqilg'isiga o'tkaziladi.

Yuridik va aholi iste'molchilarga quyosh fotoelektr stansiyalari va geliokollektorlarni o'rnatish natijasida 64,7 million kVt. soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi.

Mahalliy kengashlar bilan birgalikda doimiy ravishda viloyatda energiya resurslarini tejashni umummilliy harakat darajasiga ko'tarib, "Energiya resurslarini kelajak avlodlar uchun ham asraylik" shiori ostida targ'ibot ishlari olib boriladi.

Mazkur masala bo'yicha viloyatimizdada 2023-yil uchun energiya tejamlilik, elektr va gaz xo'jaligi obyektlarini

2023-2024-yillar kuz-qish mavsumida barqaror ishlashga tayyorlash hamda muqobil energiya manbalarini keng joriy etishni ta'minlash maqsadida elektr energiyasi va tabiiy gazni iqtisod qilish maqsadli ko'rsatkichlari, kuz-qish mavsumi uchun elektr va gaz tarmoqlarini ta'mirlash rejalari tasdiqlandi.

Viloyatdagi ko'cha yoritish qurilmalarining 50 foizini joriy yil yakuniga qadar, qolganini 2024-yil 1-iyungacha qayta qurish yordamida yoritishga o'tish belgilandi.

Sessiyada viloyat mahalliy budjetining qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi. Shuningdek, viloyat hokimining 2023-yil 13-apreldagi "Viloyat mahalliy budjetining 2023-yil I chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan foydalanish to'g'risida"gi va boshqa qarorlari tasdiqlandi.

Sessiyada muhokama etilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilindi.

Berlindagi ko'rgazmada Samarqand muzeyi ashyolari namoyish etilmoqda

Davlatimiz rahbarining Germaniyaga tashrifi doirasida Berlin shahridagi Jeyms Simon galereyasi va Yangi muzeyda "O'zbekistonning arxeologik xazinalari. Aleksandr Makedonskiydan Kushon imperiyasigacha" nomli ko'rgazma ish boshladi.



Surxondaryo viloyatining Fayoztepa yodgorligidan topilgan I-III asrlarga oid sopol friz va devoriy suratlar, miloddan avvalgi VI asrga oid, saklarning bronzadan ishlangan dubulg'asi, Kushon podsholari Geray, Girkod, Vima Kadfiz, Kanishka, Vima Taktolarning, shuningdek, Yunon-Baqtriya podsholari Yevtidem, Yevkraditlarning kumush va oltin tangalari, ahamoniyalar va kushonlar davriga oid gemmalardan iboratdir.

Jeyms Simon galereyasi zamonaviy san'atga bag'ishlangan va Berlinning markazida muzey orolida joylashgan. U mintaqadagi eng taniqli galereyalardan biri bo'lib, yosh va istiqbolli rassomlardan tortib taniqli zamonaviy san'at ustalarining asarlarigacha namoyish etadi. Muzey muntazam ko'rgazmalar va tadbirlarni, shu jumladan, ko'rgazma loyihalarini ochish, ma'ruzalar va ta'lim dasturlarini o'tkazadi.

Yangi muzey esa 2009-yilda tashrif buyuruvchilar uchun o'z eshiklarini och-

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi tomonidan tashkil etilgan ko'rgazma 2024-yil 14-yanvargacha davom etadi. Unda O'zbekistonning 9 ta muzeyi to'plamlaridan 270 dan ortiq muzey buyumlari namoyish etiladi. Bu eksponatlarning aksariyati birinchi marta mamlakat tashqarisida namoyish etilmoqda.

Ko'rgazma miloddan avvalgi IV asrning ikkinchi yarmidan - Aleksandr Makedonskiy istilosidan milodiy IV asrda Kushon davlati inqirozigacha bo'lgan davrni qamrab olgan arxeologik topilmalarga bag'ishlangan.

Yangi muzeydagi ko'rgazmada O'zbekiston muzeylari ashyolari bilan birga Berlin davlat muzeylari eksponatlari ham namoyish etiladi. Ko'rgazmaning birinchi qismi Aleksandr Makedonskiyning Yunonistondan Markaziy Osiyoga tomon yurishiga bag'ishlanadi.

Ko'rgazmaning ikkinchi qismi Kushon davlati tarixiga bag'ishlangan bo'lib, Jeyms Simon galereyasida qurilgan va unda kushonlar davrida shahar madaniyati, o'sha davrdagi diniy e'tiqodlar - zardushiylik va buddizm rivoji ko'rsatilgan.

Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondlaridan 23 dona eksponat ko'rgazmaga olib borildi. Ular miloddan avvalgi II-I asrlarga oid Afrosiyob va Toliborzu yodgorligidan topilgan sopol haykalchalar, miloddan avvalgi II-I asrga oid Afrosiyobdan topilgan idishlar va sopol haykalchalar quyish uchun qolip, Qashqadaryo viloyatining Yerqo'rg'on shaharchasidan topilgan III-IV asrlarga oid sopol friz va isiriqdon,



gan. Muzey turli xil eksponatlar uchun ko'rgazma platformasi bo'lib, tomshabinglarga Yaqin Sharq va Atlantika, Shimoliy Afrika va Skandinaviyani qamrab olgan eng qadimgi sivilizatsiyalar rivojlanishini kuza-tish imkonini beradi.

Mazkur ko'rgazma loyihasi doirasida nemis, o'zbek va ingliz tillarida yetakchi o'zbek va xorijiy olimlarning ilmiy maqolalarini o'z ichiga olgan ilmiy katalog chiqarilishi rejalashtirilgan.

Maxmudxon YUNUSOV,
Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi bosh muhofizi.



SEULDA SAMARQANDNING TURIZM SALOHIYATI TARG'IB ETILDI

Koreya Respublikasining Seul shahrida "Seoul International Travel Fair-2023" 38-xalqaro turizm ko'rgazmasi bo'lib o'tmoqda. Ko'rgazmada 70 mamlakatdan 80 mingga yaqin ishtirokchi qatnashmoqda.

Mazkur ko'rgazmada viloyat turizm va madaniy meros boshqarmasi mas'ullari, viloyatdagi turizm sohasi vakillari ham ishtirok etyapti.

Dastlab ko'rgazma doirasida mamlakatimizning Koreya Respublikasidagi elchixonasida va Koreyaning Seul hamda Geongju shaharlarida "Samar-

qand - Yangi O'zbekistonning turizm darvozasi" nomli targ'ibot kompaniyasi shuningdek, Samarqandning gastronomik turizm salohiyati namoyish etildi.

Tadbirda viloyatimizning turizm salohiyati, transport-logistika tarmog'ida sayyohlar uchun yaratilgan imkoniyatlar hamda soha uchun kadrlar tayyorlash yuzasidan "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetidagi shart-sharoitlar haqida ma'lumot berildi. Turistik kompaniyalar tomonidan yangi turizm mahsulotlari to'g'risida taqdimotlar tashkil etilib, ellikka yaqin shartnoma imzolandi.

Viloyatimizga sayyohlar oqimini oshirish maqsadida Seul shahrida

"Star Samarkand" brendi ostida faoliyat olib boruvchi restoranlar tarmog'i bilan memorandum imzolandi.

Shu bilan birga, Samarqand shahrida faoliyat olib borayotgan "Gastro Expert" akademiyasi Janubiy Koreyadagi "Star Samarkand" restoranlar tarmog'i uchun oshpazlik, qassoblik, ofitsiantlik, konditerlik va baristalik yo'nalishlarida malakali kadrlarni tayyorlash bo'yicha o'zaro kelishuv memorandumini imzolandi. Bu esa o'z navbatida Samarqandning gastronomik turizm salohiyatini Koreyada targ'ib etishga xizmat qiladi.

Viloyat turizm va madaniy meros boshqarmasi axborot xizmati.

BU FAKT!

Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, joriy yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,9 foizni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 104,3 foizni va ishlab chiqarish hajmi 1 410,5 milliard so'mni tashkil etdi.

Tadbirkorlar quyosh fotoelektr stansiyalari quradi

Davlatimiz rahbarining shu yil 16-fevralda qabul qilingan "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, joriy yilda viloyatimizning 9 hududida mahalliy tadbirkorlar tomonidan 75 MWT quvvatli kichik fotoelektr stansiyalari barpo etilishi, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining 370 ta bino va inshootlarida 18,5 MWT quvvatli quyosh panellari o'rnatilishi zarur.

Ayni paytda Samarqand shahridagi "Shaanxi Huashan Road and Bridge Engineering" korxonasi, Bulung'ur tumanidagi "SAG agro Bulung'ur" mas'uliyati cheklangan jamiyati, Toyloq tumanidagi "Pet agro oil" korxonasi, Urgut tumanidagi "Pironvest produkt" mas'uliyati cheklangan jamiyati, Payariq tumanidagi "MKK-2" va Paxtachi tumanidagi "Madina savdo belgisi" mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tomonidan har biri 10 MWT quvvatli, Jomboy tumanidagi "Shelf Vostok" va Nurobod tumanidagi "Tutli solar" mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tomonidan har biri 5 MWT quvvatli quyosh fotoelektr stansiyalari quriladi. Buning evaziga yiliga 47,1 million kWt/s hajmidagi elektr energiyasi ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, joriy va kelgusi yil uchun hozircha Narpay tumani, Kattaqo'rg'on shahri va tumanidagi tadbirkorlik subyektlari tomonidan uchta qo'shimcha loyiha ishlab chiqilmoqda. Barcha loyihalar bo'yicha dastlabki ishlarga kirishilgan. Bino va inshootlarida quyosh panellari o'rnatilishi belgilangan 370 tadbirkorlik subyektlarining 130 dan ortig'i shu paytgacha bu vazifani bajarib bo'ldi. Qolganlarida esa bu jarayon davom etmoqda.

Ta'kidlash lozimki, jismoniy shaxslar tomonidan muqobil energiya manbalaridan foydalanilishi, tadbirkorlik subyektlari tomonidan fotoelektr stansiyalari qurilishi davlatimiz tomonidan rag'batlantiriladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 428-moddasiga asosan, qayta tiklanadigan manbalardan energiya ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar qayta tiklanadigan energiya manbalari (nominal quvvati 0,1 MWT va ko'proq) uskunalariga egallagan yer uchastkalari bo'yicha ular ishga tushirilgan paytdan e'tiboran o'n yil muddatga yer solig'idan ozod etiladi.

Shuningdek, Soliq kodeksining 414-moddasiga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari (nominal quvvati 0,1 MWT va undan ortiq bo'lgan) o'rnatganlik uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar, ular foydalanishga joriy etilgan paytdan e'tiboran o'n yil muddatga mol-mulk solig'idan ozod bo'ladi.

Bu borada jismoniy shaxslarga bir qator imtiyozlar belgilangan. Jumladan,



Soliq kodeksining 436-moddasiga asosan, energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan turarjoylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar — qayta tiklanadigan energiya manbalari o'rnatilgan oydan e'tiboran uch yil muddatga yer solig'ini to'lashdan ozod qilinadi.

Bundan tashqari, Soliq kodeksining 421-moddasi 4-bandiga asosan, energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan turarjoylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar qayta tiklanadigan energiya manbalari o'rnatilgan oydan e'tiboran uch yil muddatga mol-mulk solig'idan ozod etiladi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan oy davomida yagona elektr energetika tizimiga uzatilgan va iste'mol qilingan elektr energiyasi hajmining hisobi «Hududiy elektr tarmoqlari» AJ billing tizimida yuritiladi, oy yakuni bilan tarmoqqa uzatilgan va iste'mol qilingan elektr energiyasi hajmi o'rtasidagi tafovutga asosan o'zaro hisob-kitob qilinadi. Bunda, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ tomonidan elektr energiyasini saqlab berish xizmati uchun haq olinmaydi.

Bu kabi imtiyoz va qulayliklar yuridik va jismoniy shaxslarning qayta tiklanuvchi energiya manbaalaridan foydalanishi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi bilan birga, ushbu tarmoqdan daromad olish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Jamshid HAYDAROV,
viloyat hokimining sanoatni rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari - "Urgut" erkin iqtisodiy zonasi direksiyasi rahbari.

Kasaba uyushmalari ardog'ida



O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi viloyat kengashi raisi S.Rafiqov, O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashining viloyat bo'yicha mas'ul tashkilotchisi I.Rahimov, Urgut tumani hokimligi va prokuraturasi vakillari Urgut tumanidagi Ispanza qishlog'ida yashovchi ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Bo'ron Gadoyevning holidan xabar oldi. Bo'ron bobo mehmonlarga urush xotiralari hamda tinchlik shukronasi haqida so'zlab berdi.

Ikkinchi jahon urushi qatnashchisiga kasaba uyushmalarining sovg'alari topshirildi.

D.TO'XTAYEV.

Xotira - abadiy, xotira - mangu

Nurobod tumani Ag'ron mahallasidagi 55-umumiy o'rta ta'lim maktabida shu shior ostida adabiy-badiiy kecha bo'lib o'tdi.

Tadbirda ta'lim muassasasida ko'p yillar faoliyat ko'rsatgan faxriy ustozlar, yozuvchi va shoirlar, mahalla faollari, maktab jamoasi hamda o'quvchi-yoshlar ishtirok etdi.

Xotira kechasida o'qituvchilar maktabning sobiq bitiruvchilari marhum ustozlari va kasbdoshlarining faoliyati haqida so'zlab, o'tmishdagi voqealarni yodga olishdi. Bolalar shoiri To'liqin Sidiq, tarixchi Xolmurod Soriyev xotirlash, o'tmishni doimo yodda tutish muqaddas tuyg'u ekanligini ta'kidladi.

Tadbirda maktab o'quvchilari tomonidan sahnalashtirilgan sahna ko'rinishlari namoyish etilib, ona-yurt sog'inchi, jasurlik va mardlikni madh etuvchi she'rlar o'qildi.

Eshquvvat ESHNAYEV.



VILOYATIMIZDAGI IKKINCHI JAHON URUSHI QATNASHCHILARI

SAMARQAND SHAHRI



Fazliddin Asliddinov
(1924-yil)



Sofiya Pogrebova
(1931-yil)



Mixail Kolmogorov
(1925-yil)



Raxmat Qobilov
(1925-yil)



Rayim Yusupov
(1925-yil)

NARPAY



Yusuf Ro'ziyev
(1926-yil)



Raxmon Obilov
(1926-yil)



Mahmadali Siddiqov
(1923-yil)



Ahad Ochilov
(1925-yil)



Bo'ron Gadoyev
(1925-yil)

Ularning Vatan oldidagi xizmatlari qadr topyapti

Xotira va qadr tushunchasi chuqur ma'noga ega. Vatan himoyasi yo'lida jon fido qilgan jasorat egalari eslash ham farz, ham qarzdur. Urushdan omon qaytgan qahramonlarimizga, og'ir kunlarda ham o'zligini unutmagan yuldozlarimizga ehtirom ko'rsatish bugun xalqimiz uchun milliy qadriyatga aylandi. Buni har yili 9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan faxriylarga ko'rsatilayotgan e'tibordan ham bilish mumkin.

Xususan, davlatimiz rahbarining joriy yil 2-may kuni "Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida"gi farmoni bilan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga 18 million so'm miqdorida bir martalik pul mukofoti ajratilyapti. Shuningdek, ushbu farmon bilan urushda halok bo'lgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, bugun ham safimizda turib, Vatanimizning obro'-e'tiborini yuksaltirishga, yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga hissa qo'shayotgan fax-

riylarni e'zozlash, urush qatnashchilari va nogironlarini moddiy rag'batlantirish maqsadida turli madaniy tadbirlar tashkil etilmoqda. Bugungi kunda viloyatimizda o'n nafar Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi umrguzaronlik qilmoqda. "Nuroni" jamg'armasi viloyat bo'limi tomonidan ham urush qatnashchilarining har biriga 1 million so'mdan naqd pul hamda 135 nafar kam ta'minlangan, yolg'iz va yolg'iz yashaydigan urush orti mehnat faxriylariga esdalik sovg'alar ajratildi. Xotira va qadrlash kunida tuman va shaharlarda istiqomat qilayotgan kam ta'minlangan,

ijtimoiy himoyaga muhtoj keksalarning, front ortida mehnat qilgan faxriylar hamda yurtimiz mustaqilligi yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar xonadonlariga borib, ularning xolidan xabar olinadi. Ta'kidlash lozimki, Xotira va qadrlash kuni o'tganlarni yod etish, hayot bo'lgan keksalarni qadrlash, mehr-oqibat ko'rsatish insoniy fazilatlarining qaror topishiga xizmat qilishi bilan alohida ahamiyatga ega.

Shuhrat NEGMATOV,
"Nuroni" jamg'armasi viloyat bo'limi raisi.

Insoniyat boshiga ko'p kulfatlar keltirgan Ikkinchi jahon urushining qirg'inbarot janglarida mamlakatimizdan 1,5 million kishi ishtirok etib, 500 mingga yaqini halok bo'lgan, yana qanchasi bedarak ketib, qanchasi mayib-majruh bo'lib qaytgan. Fashizmga qarshi janglarda 152 mingdan ko'proq samarqandliklar ishtirok etib, ularning 73 ming nafariga ona-yurtiga qaytish nasib etmadi.

URUSHNI XOTIRLASHDAN BIRGINA NAF BOR –

u ham bo'lsa, bunday mudhish xatoga qaytib yo'l qo'ymaslik

Bu mudhish urush payariqlik Mahmudali Siddiqovni ham teng-qurlari qatori o'z domiga tortdi. 1942-yil harbiy bo'linmaga chaqirilgan-da u 19 yoshda edi. Bir muddat harbiy tayyorgarlikdan so'ng ularning artileriya bo'linmasi jangga tashlandi. Ruminiyaning Bratislava shahrida, urushning ayni qirg'inbarot davrida jangga kirdi, bosib olingan hududlarni birma-bir ozod qilishda qatnashdi, Berlingacha bo'lgan janglarda ishtirok etdi.

- Bu bosh ne kunlarni ko'rmadi, - deya hikoya qiladi Mahmudali bobo o'sha mudhish kunlarni eslab. - Tinchlik – eng ulug' ne'mat. Urush esa o'z nomi bilan urush. Ko'z oldimizda uning dahshatli manzarasi - okop ichida

halok bo'lgan safdoshlarimiz, yonib, vayronaga aylangan shaharlar, begunoh nobud bo'lgan yosh bolalar o'sha kunlardan mudhish xotiralar bo'lib qoldi. Mahmudali Siddiqov 1945-yil yurtga, oilasi, yaqinlari bag'riga qaytdi. Urushdan so'ng tinch hayot yo'lga kirgach, Samarqand pedagogika institutida tahsil oldi. Keyingi hayot yo'lini yoshlarga ta'lim berishga bag'ishladi. Qirg yildan ko'p vaqt maktabda yosh avlodga ta'lim berdi. Oila qurib, to'rt farzandni jamiyatga nafi tegadigan insonlar qilib tarbiyaladi.

Oradan ko'p yillar o'tsa-da, Mahmudali bobo urushning dahshatli xotiralarini hech unutolmaydi. O'z xotiralarini o'rnak uchun yoshlarga

gapirib beradi. Bir asrni bo'ylagan nuroniy otaxon faqat oilasi yoki qishlog'i hayotidagi emas, mamlakatimiz va dunyodagi ishlarni kuzatib boradi. Bo'layotgan voqealarga munosabatini bildiradi. - Urushni xotirlashdan birgina naf bor – u ham bo'lsa, bunday mudhish xatoga qaytib yo'l qo'ymaslik, - deydi Mahmudali bobo. - Afsuski, yovuzlik ko'pincha ezgulik bilan yonma-yon yuradi. Bugun yer yuzining ayrim mintaqalarida bo'layotgan qonli voqealar bunga isbot. Unday kunlar hech kimning boshiga tushmasin, hech qachon urushni ko'rmanglar, bugungi tinch, dorilomon kunlarning qadriga yetinglar.

S.MARDIYEV.

Hayotda shunday insonlar bo'ladiki, ular qaysi sohada faoliyat ko'rsatmasin, tizimning yutuq, muammolarini aytib turadi, jamiyatdagi voqea-hodisalarga befarq bo'lmay, o'z munosabatini bildiradi. Uzoq yillar maktabda muallimlik qilgan qo'shrabotlik Sayfiddin Shodmonov ham xuddi shunday, tinib-tinchimas, o'z sohasining fidoyisi.

Muallim muxbir

Sayfiddin Shodmonov 1948-yilda Jo'shning Chirmos qishlog'ida tug'ilgan. Boshlang'ich ma'lumotni Oqmachit qishlog'ida birinchi ustoz Nusrat Ergashevdan oldi. U boshlang'ich sinfdayoq o'quvchisi qalbida adabiyotga havas uyg'otgan edi.

Urushdan keyingi yillarda qishloqda tayinli maktab yo'q bo'lib, bolalar odamlarning uyularida tahsil olardi. Shu sabab Oqmachit qishlog'ida istiqomat qiluvchi keksa muallimlar Nusrat Ergashev, Sunnat Normurodov, Sunlaymon To'ychiev, Jo'liboy Shakarov kabi ustozlar qishloq aholisi bilan maslahatlashgan holda hashar yo'li bilan maktab qurib, ishga tushiradi. Shu tariqa ushbu qishloqda sakkiz yillik 64-maktab paydo bo'ldi. Hozir qishloqda zamonaviy maktab faoliyat ko'rsatmoqda.

S.Shodmonov 1967-yilda SamDUning o'zbek va tojik filologiyasi fakultetiga o'qishga kiradi. O'qishni tugatgach, ilk faoliyatini o'zi tahsil olgan 64-umumta'lim maktabida o'qituvchilikdan boshladi.

Keyinchalik, ya'ni 1982-1984-yillarda Navoiy viloyatidagi 2-umumta'lim maktabida, 1985-1995-yillarda esa Jizzax viloyatining Paxtakor shahridagi 2-hunar-texnika bilim yurtida o'quvchilarga o'zbek tili va adabiyotidan saboq berdi.

Yuqorida ta'kidlaganimizday, ustoz ta'lim muassasasida ishlasa-da, qayerda bo'lmasin, ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Navoiyda ishlagan yillari "Do'stlik bayrog'i" gazetasida, Jizzaxda esa "Jiz-



zax haqiqati" gazetasida ta'lim hamda ijtimoiy hayotning boshqa masalalari bo'yicha dolzarb fikrlari jamlangan maqolalar bilan qatnashib turdi. Qo'shrabot tumaniga qaytib, ish faoliyatini o'z qishlog'ida davom ettirgan payti esa "Istiqbol sari", "Zarafshon" gazetasida rang-barang maqolalar e'lon qilib borardi.

O'quvchilar ongiga adabiyotimizni chuqurroq singdirish, ularni fanga qiziqtirishda ustoz turli uslublarni qo'lladi, shoir va yozuvchilarning tavallud kunlarini bayramga aylantirib yuborib, badiiy kechalar uyushtirib, o'quvchilarni fanga qiziqtirar edi. Muallim maktabda uslubiy birlashma rahbari sifatida ham faoliyat ko'rsatdi, 70 dan ortiq ilmiy-uslubiy maqolalari tuman, viloyat, respublika gazetalarda nashr etildi.

Hozir qutlug' yoshida ham ta'lim va matbuot bilan hamkorlik qilib turadi, goh tahririyatga maqola olib borsa, goh maktab jamoasidan xabar oladi. Ustozga ulug' yoshingiz muborak, deymiz, umringiz uzun va saodatli bo'lsin ilohim. **Tolib JO'RAYEV.**

Institutimiz faxri

Mamlakatimiz tinchligi va mustaqilligi uchun kurashda nafaqat Ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari, balki Afg'on urushida qatnashgan baynalmilal jangchilarimizning ham munosib hissasi bor.



Mana chorak asrdirki, 9-may sanasi xalqimiz tomonidan o'tgan ajdodlarimizni xotirlash, nuroniy-keksalarni e'zozlash kuni sifatida qarshi olinmoqda.

Mazkur bayram Samarqand xalqaro texnologiya universiteti jamoasi uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, inson qadr-qimmatini haqida gap borar ekan, bu o'rinda Afg'on urushi veterani, O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi va oliy ta'lim a'lochisi, pedagogika fanlari doktori, professor Yusuf Abdullayev nomini tilga olamiz.

O'ttizga yaqin oradan va medallar sohibi bo'lgan Yusuf Abdullayev O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining birinchi o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasining Rossiya Federatsiyasidagi birinchi favqulodda va muxtor elchisi, Vazirlar Mahkamasida fan va ta'lim bo'limi boshlig'i, Samarqand davlat chet tillar instituti rektori, AQSH, Koreya Respublikasi, Italiya, Angliya, Finlandiya, Afg'oniston, Turkiya va boshqa mamlakatlar universitetlarin-

ing hamda Samarqanddagi bir qator oliy ta'lim muassasalarining professori vazifalarida faoliyat ko'rsatgan. Bugun 76 yoshli Yusuf Abdullayev Samarqand xalqaro texnologiya universiteti rektori sifatida ajoyib jamoani shakllantirdi. U kishining boshchiligida jamoamiz ko'plab yutuqlarga erishmoqda. Jumladan, universitet 2022-yilda tashkil etilganiga qaramasdan, qisqa vaqt ichida o'ndan ortiq xorijiy mamlakatlarning nufuzli universitetlari bilan hamkorlik aloqalari o'rnatdi.

Yusuf Abdullayev shu kunlarda Kattaqo'rg'on va Toyloq tumanlaridagi Afg'on urushi ishtirokchilari bilan uchrashuvlar o'tkazdi, shahrimizdagi ta'lim muassasalarida tashkil qilinayotgan "Uch avlod uchrashuvi" tadbirlarida faol ishtirok etdi.

Ustozni Xotira va qadrlash kuni bilan muborakbod etib, ilmiy faoliyatiga muvaffaqiyat tilaymiz.

Po'lat NAZAROV,
Samarqand xalqaro texnologiya universiteti kasaba uyushmasi raisi.



Ustozlarni yod etib

Inson xotira bilan tirik, qadr bilan ulug'. Zero, xotira ajdodlarga yuksak hurmat va ehtirom ifodasi hamdir.

Biz faoliyat yuritayotgan O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti pedagogika fakultetining bir qancha faxriy professor-o'qituvchilari ham ana shunday yuksak hurmat va ehtiromga munosibdirlar.

Qariyb chorak va yarim asrlik umrini bo'ljak o'qituvchilarga ta'lim-tarbiya berishga sarflayotgan ustozlarimiz - professor Narziqul Shodiyev, dotsentlar Sobir Musinov, Faxridin Shodiyev, Gulbahor Raximovlarni doimo qadrlaymiz.

Marhum ustozlarimiz - O'g'illov Otavaliyeva, Ermat Iskandarov, Mirza Xoliqov, Yo'ldosh Xolmurodov, Shakar Nazarov, Ortiq Nazarov, O'ktam Shovriqov, Alisher Haqqulovlarning xotirasi qalbimizda abadiy yashaydi.

Samarqandda pedagogikaning rivojlanishiga munosib hissa qo'shib, o'nlab fan nomzodlari, yuzlab maktablardagi fan o'qituvchilarni tarbiyalagan dotsent O'g'illov Otavaliyevning nomi Sadridin Ayniy nomidagi pedagogika institutining o'tmishi bilan yonma-yon eslanadi. Bugungi kunda ustozning shogirdlaridan psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Isroil Xayriyev O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institutida yoshlarga o'z bilimlarini o'rgatmoqda.

Marhum ustozimiz Ermat Iskandarov 30 yildan ko'proq vaqt Samarqandda yoshlar ta'lim-tarbiyasi, xususan, psixologiya fanining rivojlanishiga hissa qo'shdi.

Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida tug'ilgan ustozimiz-psixologiya fanlari nomzodi Zulayxo Karimova Samarqandda talaba bo'lib, oila qurdi. Umr yo'ldoshi bilan 3 nafar farzandni voyaga yetkazdi. Psixologiya fanlari doktori, professor Vasila Karimova rahbarligida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Afsus, kasallik sabab yorug' dunyoni erta tark etdi.

Marhum ustozlarimizdan yana biri, pastdarg'omlik Ortiq Nazarov Samarqand davlat universitetini filologiya yo'nalishida tahsil olib, tumandagi 107-umumiy o'rta ta'lim maktabida 31 yil faoliyat olib bordi. Afsus, ustoz muborak 60 yoshni qarshilash arafasida kasallanib, vafot etdi.

O'tganlarni yod etish burchimiz, hayot bo'lgan ustozlarimizni e'zozlash saodatdir. Xotira - kechagi o'tmishni, ajdodlar o'g'itini, milliy merosimizni anglatib turuvchi - muqaddas kitob zarvarlaridek hayotimizni yoritib turadi.

Maxsuda RAHMONOVA,
O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika institutining pedagogika
kafedrasida katta o'qituvchisi.
Otabek ZARIPOV,
dotsent v.b.

Xotira - muqaddas tuyg'u

Asrlar davomida xalqimiz ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib kelgan qadriyatlarimizdan biri, shubhasiz bu - insonning azizligi, xotirasi muqaddasligidir.

Alloh taolo insonni barcha jonzotlar ichida eng azizu mukarrami, sarvari etib yaratdi. Shunday yuksak sharaf-

ga munosibligi uchun ham inson doimo e'zozlanib, ehtirom ko'rsatib kelinadi. Bu ehtirom u vafot etgach ham davom etadi. Qabri atrofiga gullar ekilib, obod qilinadi va ziyorat etilib, marhumlar haqiga duo, xayrlar qilib turiladi.

Payg'ambar alayhissalom hadisi shariflarida "Bu dunyodan o'tganlarni-

ing yaxshi sifatlarini eslanglar, ularning yomon sifatlarini aytishdan saqlanilgilar", deya marhamat qilganlar. Shu bois marhumlarning hayot davrida qilgan yaxshi amallarini eslab, yodga olish lozim.

Yurtimizda 9-may "Xotira va qadrlash kuni" sifatida keng nishtonlanadi. Bu kun nafaqat mash'um urush yillarida qurbon bo'lganlarni yodga olish, balki yurt obodligi, xalq farovonligi yo'lida fidokorona mehnat qilgan, Vatanimiz ravnaqiga

munosib hissa qo'shgan tabarruk otaxon va onaxonlarimizga cheksiz hurmat, izzat-ikrom ko'rsatish, ularni e'zozlash va qadrlash kuni sifatida qadrlidir.

O'tganlarni xotirlab, ularning qabrlarini ziyorat qilib, obodonlashtirib, ularning haqlariga duolar qilish bizning insoniy burchimizdir.

Nasrullo NURULLO o'g'li,
Past Darg'om tumani,
Namozgoh jome masjidi
imom-xatibi.

Fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga 78-yil bo'ldi. Bu olamshumul, tarixiy voqeelik boshqa xalqlar singari o'zbekistonliklar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Chunki ayni taloto'pda 400 mingga yaqin o'zbek o'g'lonlari fashizm bilan janglarda shahid bo'lgan, ularning xoki dunyoning turli burchaklarida qolib ketgan. Omon qaytganlarning aksariyati ham bugun oramizda yo'q.

"Boshimizga tushgan kunlarni sizlar ko'rmanglar"

Samarqand shahar So'zangaron mahallasida tug'ilgan Abdullo Amriddinov ham 19 yoshida mash'um urushga jalb etilgan. U 1944-yilning dekabrda 234-zaxira o'qchi harbiy qismda Germaniyaning Drezden shahriga olib ketiladi. Qahraton qishda jangga kirgan A.Amriddinov 1945-yilning iyunigacha jon olib, jon bergan. Bu davrda qanchadan qancha qurol-doshlarini so'nggi manzilga kuzatishiga to'g'ri keladi.

Taqdir hukmi bilan omon qolgan A.Amriddinov urush tugagandan keyin ham 1948-yilning apreligacha Germaniyada harbiy qismda xizmat qilgan. Urushdan qaytib kelib o'qigan, yigirma yetti yoshida Farog'at Amriddinova bilan oila qurib, uch o'g'il va besh nafar qizni voyaga yetkazgan.

Sana oldidan bobomni xotirlarkanman, u kishi urush qatnashchisi sifatida imtiyozga, e'tirofga loyiq bo'lishiga qaramasdan, fidoyilik bilan ishlaganligini aytish mumkin.

Sabr va qanoati esa bugun ko'pchilikka ibrat bo'lishi mumkin. Chunki u kishining urushdan keyingi mehnat faoliyati bir joyda boshlanib, shu yerda tugagan: Samar-



qand tuman Kulbai poyon qishloq fuqarolar yig'inida qariyb 40-yil bosh kassir bo'lib ishladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin Ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga har qachongidan ko'proq e'tibor qaratiladigan bo'ldi. Misol uchun, 1995-yil respublikamizda barcha Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari "Jasorat" medali bilan taqdirlandi.

Bobom vaqt topib, biz nabiralarga urush xotiralari, uning asoratlari va jangohda kechgan damlari haqida so'zlab berardi. Turli o'lkalarda qolgan safdoshlarini xotirlab, chuqur o'ylarga tolardi. Bir burda non u yoqda tursin, turpning po'stlog'i ham havas qiladigan yegulik bo'lganini hayotiy voqealar asosida aytib berganlarida, ichimizdan zil ketib tinglaganmiz. U doim "Boshimizga tushgan kunlarni sizlar ko'rmanglar", derdi.

Afsuski, 16 yil avval bobom omonatlarini topshirdi. Hayot bo'lganlarida 98 yoshni qarshi olardi. Taskin beradigani shuki, u kishining jasoratlari, ibratli umr yo'li yaqinlarining qalbidamangu qolgan.

Mahmudjon ABDULLAYEV,
SamDU tarix fakulteti
talabasi.

Yaqinlaringiz qabrini obod qildingizmi?

Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi va sallam "Qabrlarni ziyorat qiling. Chunki u sizga oxiratni eslatadi", deganlar. Ayniqsa, hadislarda kishi ota-onasining qabrini ko'p ziyorat qilsa, vafotidan keyin uning qabrini farishtalar ziyorat qilishi keltirilgan.

Bunday manzillar obod qilinsa, marhumlar ruhi ham shod bo'ladi. Aslida bu xalqimiz uchun odat, an'ana. Lekin bu amallar kimlar uchundir unut bo'lgan ko'rinadi.

Yaqinda mahallamizdagi qabristonda hashar qilib, qarovsiz qolgan qabrlarni obod qildik. Achinarlisi, vafot etganiga hali ko'p bo'lmagan marhumlarning qabrlari gul emas, tikanlar bilan to'lgan. Nahotki, ularning farzandlari yoki yaqinlari bu yerni ziyorat qilmagan bo'lsa?

Tiriklik hech kim uchun mangu emas. Hamma o'tadi. Siz boradigan so'nggi manzil qarovsiz qolmasligi uchun yaqinlaringiz qabrini obod qilib, avlodlarga o'rnak bo'ling!

Turdi TURSUNOV,
Payariq tumani.

Suvchilik san'ati sohibi

Suv keltirgan, insonlar mushkulini oson qilgan kishi elda aziz bo'lgan. Tan olish kerak, doim ham suvni yetkazib berish oson kechmagan. Bu vazifani o'z ishini sevgan, shu ilmini mukammal egallagan kishilargina uddasidan chiqqan. Yurt obodligi, dasturxonimiz to'kinligining asosi bo'lgan suvni boshqarish va undan tejab foydalanish ishi bir san'at. Kattaqo'rg'on tumani Kadan qo'rg'onchasida 1947-yil 25-martda dunyoga kelgan Iskandar Qiyomov o'z ishini san'at darajasiga olib chiqqan irrigatorlardan edi.

U yoshligidan ilmga chanqoqliqi, zehnlili, kuchli xotirasi bilan boshqa bolalardan ajralib turardi. U 7-sinfni bitirgach o'rta ta'limni Payshanba shaharchasidagi 82-va 84-maktablarda oldi. Qaysi maktabda o'qimasin, o'quvchilardan boshqacha fikrlashi, ilmlligini ko'rsatardi. Fanlarni tez o'zlashtirishi bois 1964-yilda Toshkent meditsina institutiga qabul qilindi. Ammo irrigatsiya sohasiga bo'lgan qiziqish tufayli ToshMIdagi o'qinishi tashlab, Qarshi irrigatsiya texnikumiga o'qishga kirdi. Harbiy xizmatdan so'ng Qarshi garomeli-oratsiya markazida ish boshladi.

1969-yil ishdan ajralmagan holda

sohani yanada mukammal o'rganish maqsadida Qarshi irrigatsiya institutiga sirtidan o'qishga kirdi. U yoshligidan matematik masalalar, ilmiy hisoblarni turli yo'llar bilan mukammal o'rganishga harakat qilardi. Shu bois bo'lsa kerak, institutning uchinchi bosqichida o'qiyotganda o'qituvchi unga imtihondan "uch" baho, lekin Iskandar ko'chirgan talabaga "besh" baho qo'yadi. Iskandar institut rektoriga kirib, imtihon varag'idagi misolning to'g'riligini isbotlab beradi, o'qituvchi bo'lsa undan uzr so'raydi, lekin ilmi bo'lsa nega kunduzgi bo'limda o'qimaydi, degan gap unga ta'sir qilib, 1972-yilda O'rta Osiyoda yagona



bo'lgan Toshkent irrigatsiya institutining kunduzgi bo'limiga o'qishga kirdi. Institutni bitirgach, Xorazm viloyatida harbiy tayyorlovni o'tadi. 1977-yildan yana ishga qaytib, ish boshqaruvchi, muhandis, bosh muhandis lavozimlarida ishladi. 2000-yildan Nurobod, Past Darg'om, Ishtixon, Qo'shrabot, Paxtachi tumanlarida irrigatsiya tizimi korxonalarida bosh muhandis bo'lib mehnat qildi. Kattaqo'rg'on tumanidagi Xatirchi tumanini suv bilan ta'minlash inshooti, "Yangi Navoiy", "Jo'shariat"

kanallari, "Oqdaryo", "Andoq" suv omborlari, "Moybuloq" nasos stansiyasi qurilishi ishlarida bosh-qosh bo'ldi. Past Darg'om tumanida yangi yerlarni o'zlashtirish, suv bilan ta'minlash, suv inshooti qurilishi, Narpay kanali qurilishi, Kattaqo'rg'on tumandagi Mundiyn hududida Bolgariyadan keltirilgan nasos stansiyasi qurilishi, Kattaqo'rg'on suv ombori qurilishlariga boshchilik qildi.

Iskandar yuqorida aytganimgdek bir ishga astoydil kirishardi va oldiga qo'ygan maqsadiga yetish uchun harakat qilardi. U 1971-yilda Nazira Qurbonova bilan turmush qurib, besh farzandni voyaga yetkazishdi. Unga hayotning qiyinchilik va xursandchiligida turmush o'rtog'i ko'mak-dosh bo'ldi.

Do'stimizning xizmatlari tufayli ko'plab insonlar hozirda ham obi-hayotdan bahramand bo'lmoqda, hosil yetishtirmoqda, bozorlarimiz seroblighi, el dasturxonlari to'kinligi ta'minlanmoqda. Iskandar Qiyomovning xotirasi oilasi, farzandlari va biz, do'stlarining qalbimizda mangu yashaydi.

Berdiyori CHAQQONOV,
Rahmatillo SHAKAROV.

Do'stlarimni eslasam...



O'tganlarning xayrli ishlarini yodga olish, e'zozlamok xalqimizga xos ezgu fazilatlardan. Binobarin, xotira bu - unutmazlik deganidir. Shunday insonlar borki, ular hayotlik paylaridayoq do'stlari qalbidan, odamlarning ko'ngidan joy oladi.

Do'stlarim orasida ham xuddi shunday insonlarning ko'pligi qalbidam fahr uyg'otadi. Biz 1972-yilda Qo'shrabot tumandagi 70-o'rta maktabga ilk qadam qo'yganimiz. Sinfdoshlarimiz orasida iqtidorlilari ko'p edi. Barchasi o'z oldiga yuksak orzu-maqсадlar qo'ygandi.

1983-yilda Qo'shrabot kasb-hunar maktabini tamomlagach, niyatlarimizni amalga oshirish maqsadida kelajak hayot sari yo'lga qadam qo'yganmiz. Biroq hayotda o'z o'rnimizni topishimiz oson kechmagan. Afsuski, bilim va zehni bilan yuqori natijalarga erishgan sinfdoshlarimizning ko'pchiligi bugun oramizda yo'q.

Ulardan Zulayho Rahmonova mohir tikuvchi, Ne'matillo O'sarov tadbirkor sifatida hurmat qozongan edi. Abduvali Rahmonov va Abdurauf Savronovlar Navoiy kon-metallurgiya kombinatiga qarashli korxonalarda ishlardi.

Biri korxonada elektr tarmoqlarini nazorat qilgan bo'lsa, ikkinchisi ulkan yuk mashinalarini boshqaradigan tajribali haydovchi edi. Karim Tashiyev ham shu kombinatda quruvchi bo'lib ishlab kelgan. Ularning har biri o'z mehnati orqasidan katta hurmat-e'tibor topgandi.

Yana bir do'stimiz Kamoliddin Jumayev yerni tushunadigan dehqonlar sirasiga kirardi. U Jizzax viloyati Paxtakor tumanida yashab mehnat qildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq g'alladan yuqori hosil olib, viloyat rahbarlari e'tiboriga tushdi.

Bugun ularning ishlarini farzandlari davom ettirmoqda. Do'stlarimizning porloq xotirasi bizning va yaqinlarning qalbidam yashamoqda.

Akmal QO'SHOQOV,
Qo'shrabot tumanidagi
70-umumta'lim maktabi
o'qituvchisi.

Fidoyi inson edi

Ezgu amallari bilan insonlar qalbidan joy olgan ustoz Abdurahmon domla Shodmonqulov fidoyi pedagoglardan edi. Ming afsuski, ustoz bugun oramizda yo'q.

A.Shodmonqulovning bolaligi Ikkinchi jahon urushidan keyingi og'ir-yillarga to'g'ri keldi. U 1948-yilning 5-aprelida Urgut tumani hozirgi Buloqboshi mahallasida ziyoli oilada tug'ildi. Ustozning otasi xalq orasida hurmatga sazovor bo'lgani uchun uni qishloqdoshlari Mullo Shodmon domla deb atashardi.

A.Shodmonqulov 1966-yil tumandagi 1-sonli maktabni muvaffaqiyatli tamomladi. Unga yetuklik attestati bilan birga traktorchi ixtisosligi berilib, tumandagi Maksim Gorkiy nomli kolxozga traktorchi qilib yuborildi. U 1967-yildan 1972-yilgacha kolxozda traktorchi, bosh mexanik, konstruktor bo'lib ishladi.

1972-yilda Abdurahmon bolalikdan adabiyotga bo'lgan mehri tufayli Tojikistondagi Leninobod davlat universitetining o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga o'qishga kirdi. So'ngra ta'lim tizimidagi ilk mehnat faoliyatini tumandagi 12-maktabda boshladi.

1980-1984-yillarda qishloq idagi 75-maktabda ona tili va adabiyoti fanidan o'quvchilarga ta'lim berdi. Keyin shu maktab direktori lavozimiga tayinlandi. Uning rahbarligi davrida maktab o'quv reytingi bo'yicha tumandagi eng yetakchi o'rinlarga ko'tarildi. Talabchan va fidoyi rahbar keyinroq tuman xalq ta'limi bo'limi bosh nazoratchisi bo'ldi.

1993-1999-yillarda Urgut tumani ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi bosh inspektori lavozimida faoliyat ko'rsatdi. Kasaba uyushmasi inspektori la-



vozmida ko'plab fidoyi pedagog o'qituvchilarni zahmatli mehnatlariga yarasha rag'batlantirish, mukofotlash, respublikadagi eng yaxshi sanatoriyalarda dam olishini tashkil qilish kabi xayrli ishlarga bosh-qosh bo'ldi.

Ustozning direktorlik davri o'qituvchilar va o'quvchilar maktabning eng gullagan, obod bo'lgan davri deb eslaydi. Negaki, shu davrda maktab moddiy-texnik bazasi yashilandi. 2007-yildan maktab yangi binoda ish boshladi. Sport zal qurilib, eng zamonaviy sport jihozlari bilan ta'minlandi.

Ustoz nafaqaga chiqqanidan so'ng mahalladoshlari ishonch bildirgani uchun Murodqiшлоq mahallasi raisi sifatida faoliyat ko'rsatdi.

Abdurahmon domla turmush o'rtog'i Sarvara aya bilan yetti nafar farzandni voyaga yetkazdi. Ustozning yorqin xotirasi qalbimizda doim yashaydi.

Orzubek ABDURAHMONOV,
Samarqand davlat tibbiyot
universiteti talabasi.

“SAMARQAND KAMALAK INVEST TEKSTIL”

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI JAMOASI

9

yurtdoshlarimizni
**XOTIRA VA
QADRLASH KUNI**
bilan tabriklaydi.

*Nuroniy otaxon
va munis
onaxonlarimizga
uzoq umr,
sihat-salomatlik
tilaymiz!*

Mahsulotlar sertifikatlangan.



PAST DARG'OM TUMANI TIBBIYOT BIRLASHMASI JAMOASI

BARCHA YURTDOSHLARIMIZNI

**XOTIRA VA
QADRLASH KUNI**

BILAN TABRIKLAYDI.

*Yurtimiz osmoni doim
musaffo bo'lsin,
xonadoningizdan qut-baraka
arimasin!*



PAST DARG'OM TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI JAMOASI

vatandoshlarimizni
9-MAY -

**XOTIRA VA
QADRLASH KUNI**

bilan muborakbod etadi.

*Barchangizga
tinchlik-
xotirjamlik
tilaymiz.*



O'ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI FEDERATSIYASINING SAMARQAND VILOYATI KENGASHI

Jang maydonlarida mardlik,
jasorat ko'rsatgan, front ortida
fidokorona mehnat qilgan
va bugun oramizda sog'
omon yurgan faxriylarimizga
ta'zim qilamiz. Hozirgi tinch-
osoyishta hayotimiz, musaffo
osmonimiz uchun ularga cheksiz
minnatdorlik bildiramiz.



UZTELECOM xalqimizni 9-MAY – XOTIRA VA QADRLASH KUNI bilan qutlaydi.

BUGUNGI OSUDA, FAROVON HAYOTIMIZ UCHUN JON FIDO
ETGANLAR XOTIRASI OLDIDA HAMISHA TA'ZIMDAMIZ!



IPAK YO'LI BANKI

barcha yurtdoshlarimizni
**XOTIRA VA
QADRLASH KUNI**
bilan tabriklaydi.

**YURT RAVNAQI YO'LIDA JON FIDO
QILGANLARNING OXIRATI OBOD BO'LSIN!**

SAMARQAND VILOYATI AHOLISI VA MEHMONLARI DIQQATIGA!

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi "Elektromagnit moslashuv markazi" davlat unitar korxonasi ("EMMM" DUK) Samarqand viloyati Elektromagnit moslashuv xizmati turli diapazonlardagi radioaloqa vositalariga, televideniya va radioeshittirish (TV va RE) dasturlarini qabul qilishga ta'sir etuvchi radiohalaqatlarni bartaraf etish uchun jismoniy va yuridik shaxslardan buyurtmalarni qabul qiladi.

Radiohalaqatlarni bartaraf etish ishlari O'zbekiston Respublikasining "Radiochastota spektri to'g'risida"gi Qonuni asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi "Elektromagnit moslashuv markazi" DUK Samarqand viloyati Elektromagnit

moslashuv xizmati oqohlantiradi:

Respublika hududiga ruxsatnomasiz va sertifikatizatsiya olib kiritilgan hamda sotuvda bo'lgan va ishlatilayotgan radioelektron vositalari (uzoq masofali radiouzatgichlar, portativ radiostansiyalar va boshqa radiouzatgich vositalari) o'rnatilgan tartibda musodara qilinadi va ularni olib kirishni amalga oshirgan shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralarini ko'riladi.

Radioelektron vositalarini Respublika hududiga olib kirish uchun ruxsatnoma olishni va o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tkazishni rasmiylashtirish masalalari bo'yicha Samarqand viloyati Elektromagnit moslashuv xizmatiga murojaat qilishingiz mumkin.

**Manzil: Samarqand tumani "Yoshlik qo'rg'oni" MFY.
Telefonlar: +99866-616-43-45, +99866-616-44-15.
Samarqand viloyati Elektromagnit moslashuv xizmati.**

TA'SISCHILAR DIQQATIGA!

Urgut tumanidagi "URGUT-SAXOVATI" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilarining umumiy hisobot yig'ilishi 2023-yil 3-iyun soat 10:30 da jamiyat ma'muriy binosida o'tkaziladi. Yig'ilishga "URGUT-SAXOVATI" mas'uliyati cheklangan jamiyatining barcha ta'sischilari taklif etiladi.

YIG'ILISH KUN TARTIBIGA QUYIDAGI MASALALAR KIRITILGAN:

- Jamiyatning 2022-yilgi moliyaviy-xo'jalik faoliyati yakunlari yuzasidan "URGUT-SAXOVATI" MCHJ direktorining hisoboti;
- "URGUT-SAXOVATI" MCHJ bosh hisobchisining 2022-yilgi buxgalteriya moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha hisoboti;
- 2023-yil uchun tuzilgan shtatlar jadvali va biznes-rejasi hamda 2022-yil yakuni bo'yicha berilgan auditor tekshiruv xulosasini tasdiqlash;
- 2022-yilda olingan sof foydani ta'sischilar o'rtasida taqsimlash, hisoblangan dividend miqdori va uni to'lovini amalga oshirish tartibi to'g'risida;
- boshqa masalalar.

**Manzil: Urgut shahri Do'stlik mahallasi, Pochvon ko'chasi.
"URGUT-SAXOVATI" MCHJ MA'MURIYATI.**

DA'VOLAR BO'LSA...

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Shukurov Absayit Isayevichga (2018-yil 26-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Ergashev Maxsud Djabbarovichga (2022-yil 4-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Nuridinov Ulmasga (2020-yil 3-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani O'rta shahri mahallasi.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortig'boyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Uralov Urakga (2014-yil 29-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortig'boyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisrovovna notarial idorasida marhum Sattorov

Karimga (1988-yil 20-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisrovovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Axrorova Maxsuda Sharafovnaga (2019-yil 22-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

BEKOR QILINADI
Samarqand shahridagi "MOTRID NORD" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 306921700) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

G'afur G'ulom tavalludining 120 yilligiga

Xalqimizning sevimli shoiri G'afur G'ulomning serqirra ijodi bilan tanishmagan, uning "Zo'r karvon yo'lida yetim bo'tadek" deb boshlanuvchi she'ridan tortib "Shum bola" sigacha miriqib o'qimagan kitobxon topilmasa kerak. Milliy falsafiy dunyoqarash, o'zbekona ruh bo'rtib turgan asarlari bilan o'zbek adabiyotida munosib o'rin egallagan ijodkorning voqelikni poetik idrok etish mahorati, so'z qo'llashda o'ziga xosligi haqida oddiy o'quvchilaru adabiyotshunoslarimizgacha ko'p va xo'b yozishgan.

AKADEMIK
SHOIR IJODI
OLIM NIGOHIDA

Ular orasida G'afur G'ulom she'riyatini ilmiy o'rganishga bel bog'lagan va bu borada salmoqli ish qilgan, uzoq yillar shoir bilan hamnafas ilmiy ish olib borgan samarqandlik olim O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor Nuriddin Shukurovdir.

G'afur G'ulomning ijodi, ayniqsa, xalqona she'riyatini Nuriddin Shukurovni talabalik yillaridayoq o'ziga jalb qilgan edi. O'qishni bitirgach, shoir ijodini puxta o'rganishni maqsad qilib, ilmiy faoliyatini oqsoqol shoirning ijodiy olamini o'rganishdan boshladi. Shoir she'rlarini sinchiklab o'rgandi, tarixni yoritishi, o'ziga xos tashbehlaru o'xshatishlarni qo'llashdagi mahoratini tahlil etib "G'afur G'ulom poeziyasida O'zbekiston taraqqiyot tarixining yorqin sahilalari o'zining olamshumul ahamiyati va mazmuni bilan, falsafiy asoslari va tarixiy ildizlari bilan ifodalanadi", degan xulosaga keladi. Olim bu boradagi kuzatishlarini umumlashtirib, "G'afur G'ulomning poetik mahorati" mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyat bilan himoya qiladi. Nuriddin Shukurov shoir ijodini o'rganishda davom etdi va doktorlik ishida ham bu mavzu markaziy o'rinni egalladi.

G'afur G'ulom ijodining o'ziga xosligi shundaki, muallif she'r uchun mavzuni hayotdan oladi, fikrlari voqelikka to'la mos keladi. U tanlagan obrazlarda ham hayurtlarimiz qiyofasi aks etadi. Shuning uchun shoir tomondan yaratilgan "Kuzatish", "Sog'inish", "Vaqt", "Kuz keldi", "Xotin", "Sen yetim emassan" "Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak" kabi aksariyat she'rlar xalqimiz o'tmishidan so'zlaydi.

G'afur G'ulomni anglamok uchun she'rlarini ijodkor ko'zi bilan o'qish, o'zbekona ruh bilan tafakkur qilish lozim. Uning she'rlarini iqtidorli munaqqid tadqiq etsa, ijod olami ko'zga yanada teran, yorqinroq ko'rinadi. Satra-satr asarning mazmuni va mohiyati, muallif muddaosi ochilib boraveradi. O'tgan asrning 70-80- yillarida Nuriddin Shukurov tomonidan yozilgan shoir ijodiga oid maqolalar bugun ham ahamiyatini yo'qotgan emas.

Olim nafaqat shoirning she'riyatdagi mahorati va uslubiy o'ziga xosligi, balki uning teran fikrlashi, she'r orqali nafaqat bugunning voqeligi, kelajakni ham bashorat qila olish xislatiga e'tibor qaratadi. Munaqqid shoir she'rlarida aytilgan fikrlarning hayotda o'z isbotini topganligidan hayratga tushadi va o'z xulosalarini quyidagicha tavsiflaydi:

"G'afur G'ulom bashoratlari qanchalik romantik bo'lmasin, ular konkret realistik asosga ega ekanligi bilan alohida kuch-qudrat va hayotiylik kasb etadi. Shoir 1939-yilda "Is-tasak nur minib yarim sekunda ucharmiz fazoning burchdan burchiga" ("Ko'k bo'sag'asida" she'ri) deb yozgan edi. Oradan yigirma yildan ko'proq vaqt o'tib, Yuriy Gagarin birinchi marta kosmosga parvoz qildi. Go'yo shoir bashorati tasdiqlangandek bo'ldi.

Umumbashariy xulosalar, publitsistik ruh G'afur G'ulomning ulkan ijodkor, donishmand insonligidan ham darak beradi.

Endi ko'ribimiz bu og'ir kunni,
Yig'loqi o'z baxtin dushmani axir. ("Xotin" she'ri)

Bunday hayotiy xulosalar, xalqchil tasalli, yashash, yaratish va shijoatga undovchi murojaatlar akademik shoirning tafakkuri chig'irig'i, hayotiy tajribasidan o'tgan haqiqatlar bo'lib, she'riyatining jonli, serjiloligini ta'minlagan.

Toshpo'lat TUGALOV.

NAVOIYSHUNOSLIKNING BAKTIYOR MALIKASI

TANIQLI OLIMA SUYIMA G'ANIYEVANI YO'QLAB

O'zbek adabiyotshunosligi jahon adabiyotshunosligi fani uslubida shakllanib, taraqqiy topishida yuksak ilmiy ahamiyatga ega asarlari bilan xizmat ko'rsatgan olimlardan biri Suyima opa G'aniyeva bo'ladi. Opa hayotlarining bahoridayoq faqat ilm yo'li u kishining cheksiz ma'naviy ehtiyojlarini qondirishini his etdilar va shu yo'ldangina yurishni ixtiyor etdilar. Bu tanlov bilan Suyima opa fitratlan imtalab, ma'rifatlab, mehnattalab inson ekanliklarini so'zsiz namoyon etdilar. Ilm - Yaratgan dargohidagi eng nodir, tanlanganlargagina in'om etiladigan xazinadir. Butun insoniyat ichidan tanlanganlar ham olimlarni o'zlarining vorislari deb biladilar. Ilm shunchalar oliy ne'mat, sermashaqqat mehnat, zahmat va fidoiyligidir. Kattami, kichikmi, imtalabmi, ilm yoyuvchimi jaholat zulmatiga ignaday nur kiritsagina, Hazrat Navoiy aytganlariday «bu qofila (ya'ni, ahli ilm) tariq»ga kiradi.

Suyimaxon opa XX asr o'zbek adabiyotshunosligining, xususan, navoiyshunoslik fanining «mabdi nur»laridan biridir. Opaning tinimsiz izlanishlari va mehnatlari tufayli navoiyshunoslik fani o'zining tengsiz zahirasiga ega bo'ldi.

Navoiy merosini tekstologik nuqtai nazardan o'rganish sohasida amalga oshirilgan birinchi va katta tadqiqotlar Suyimaxon opa qalamiga mansub. Olima yaratilayotgan tadqiqotning katta yoki kichik bo'lishidan qat'i nazar, qo'lyozmalarining jahon kitob xazinalarida saqlanayotgan turli nusxalarini ko'rib chiqib, ulardan muhim ilmiy ahamiyatga moliklarini tadqiqot uchun asos qilib oladilar. Bundan tashqari, asarlar fotonusxalarini sinchiklab o'rganish, o'nlab qo'lyozmalarni bir-biriga solishtirish natijasida shoir asarlarining bir nechta redaksiyalari mavjud bo'lganligi xususida ham ma'lumotga ega bo'ladi. Xususan, «Majolis un-nafois» tazkirasining uch redaksiyasi haqida aniq ilmiy ma'lumotlar berib, shoir ijodxonadagi badiiy tahrir hodisasiga ham munosabat bildirildi.

Olim o'ziga xos ilmiy uslubga ega. U matnlar qatidagi ko'pchilik e'tiborini tortmagan, ammo

o'quvchi uchun g'oyat foydali, qiziqarli biror hodisaga diqqatini qaratadi. Xususan, Hazrat Navoiyning Unsiyadagi kutubxonasi tarkibi, mazmun-mudariyasi haqidagi qiziqishlar navoiyshunoslarni ko'pdan buyon o'ylantirib keladi. Opa bu sohada katta bir ishni amalga oshirdilar. «Navoiy yodga olgan asarlar» nomli kitoblarda shoirning boy va serqirra adabiy, ilmiy merosida u o'rgangan va istifoda qilgan asarlarning to'liq ro'yxatini va bu asarlar haqida ma'lumotlarni keltiradilar. Shoir ijodiga qiziqqan va tasavvuf ilmini o'rganmoqchi bo'lganlar uchun katta qulaylik yaratilgan bo'lsada Navoiy tilga olgan asarlar ro'yxati alifbe tartibida keltirilib, ularning mazmuni haqida ham izoh va qaydlar beriladi.

Suyimaxon opa Navoiy davri, uning ishtirokida yaratilgan adabiy muhit ishtirokchilari va xususiyatlarini chuqur o'rganishga intilganlar. Shavkatli shoh va dilbar shoir Husayn Boyqaro asarlari qo'lyozmalari va nashrlari, devoni va risolasi nashrlari bilan o'tgan asrning oltin yillaridayoq, o'sha paytdagi davlat siyosati sohibqiron Amir Temur va temuriyodalarga noxolis munosabatda bo'lgan, sovet tuzumiga qadar o'tgan hamma hukmdorlar qoralangan bir davrda shug'ullanganlar.

«Navoiy xonadoniga mansub shoir» (1987), «Tab'i xub, kalomi marg'ub» (1996), «Yetib el dardina ortuq biligi» (1996), «Gavharshod-begim», «Saroymulkxonim» (1999), «Muxammasi Mo'min Mirzo bar g'azali Jomiy» (2000), «Boysung'ur Mirzoning Firdavsiy «Shohnoma»siga yozgan debotchasi» (1996), «Faxriy Hirotiyning «Javohir ul-ajoyib tazkiri» (1999), «Shoh G'arib Mirzoning yangi topilgan g'azali» (1999),

«Navoiyning katta zamondoshi Mehri Hirotiy» (1960) kabi maqolalar olimaning izlanishlari diapazonining kengligi va uning ulkan salohiyatidan dalolat beradi.

Suyima G'aniyevaning o'zi ham qomusiy bilimlarga ega olimadir, desak bag'oyat to'g'ri bo'ladi. Chunki romantizm ruhi hamon ufurib turgan bir davrda yaratilgan, ayniqsa, markazi Hirotiy bo'lgan temuriylar tamadduni davrida yaratilgan badiiy asarlar o'sha davr ilmiy fanining barcha yutuqlarini o'zida mujassam etib, butun bir davr ruhiyatini va ilmiy, madaniy tafakkurini o'zida aks ettirgan. Shunday ekan, bu davr adabiyoti bilan shug'ullangan mutaxassis nihoyatda chuqur bilimlar sohibi bo'lishi kerak yoki ish jarayonida xuddi shunday shaxsga aylana-di. Shu boisdan qaysi mavzuda bo'lmasin, suhbat qurilmasin, Suyima opadan katta va bag'oyat foydali ma'naviy madad olish mumkin edi.

Davrimizning yuksak madaniy hodisasi bo'lgan akademik nashr - Alisher Navoiy Mukammal asarlari to'plami 20 jildligining 13-, 14-, 15-, 16-, 17-jildlari, Hazrat Navoiyning «Majolis un-nafois», «Mah-bub ul-qulub», «Munshaot», «Vaqfiya», «Xamsat ul-mutahayyirin», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Holoti Pahlavan Muhammad», «Nazm ul-javohir», «Muhokamat ul-lug'atayn», «Arba'in», «Siroj ul-muslimiyn», «Munjojot», «Risolai tiyr andoxtan», «Nasoyim ul-muhabbat» (hammuallifiyda) kabi o'n to'rtta asari matnlarini izoh va tarjimalar bilan nashrga tayyorlab bergan olamoi davron Suyimaxon opa bo'ldilar.

Ko'p yillik hayotiy tajribalaridan kelib chiqib, foydali maslahatlar berar edilar. «Bir narsaga amin bo'ldim, - degan edilar bir suhbatda, - ulug' insonlar nomlarini tilga olaversangiz, meroslarini

o'rganib, asarlariga murojaat etib tursangiz, shu o'tgan insonlarning ruhi poklari doimo Siz bilan birga bo'lar ekan. Ularning nazoratida turar ekansiz. Men buni yaqqol his etdim».

Samarqandda ko'p mehmon bo'lar edilar. Taklif etilsalar, albatta, kelar edilar. Shogirdlari bilan faxrlanib, ularning kitoblari taqdimotlarida ham qatnashar edilar. Karomatxon Mullaxo'jayevani, Olimjon Davlatovni, Komiljon Rahimovni ko'p tilga olar, yoshlarning ilm sohasidagi xizmatlarini e'tirof etishni yoqtirar edilar. Leningradda tashrifli chog'ida birga bo'lgan - o'sha paytda yosh olim, hozirda professor Ibdulla Mirzayevni «Moy zolotoy» deb chaqirar edilar.

Samarqandga tashrifli chog'ida do'stu yorlari, birodarlarini ko'rib, bir necha daqiqa bo'lsa ham suhbatlashib ketishni odat qilgan edilar. Dunyodan o'tgan tanish-bilishlarining uylariga borib, duoi fotiha qilib, yaqinlaridan ko'ngil so'rab qaytar edilar.

Dilkash inson edilar. Dilbar ayol edilar. Yumorga boy edilar. Yuz-ko'zlari doimo kulib turar edi. Biror marta g'amgin yoki ma'yus bo'lganlarini ko'rmaganman. Matonatli edilar.

Suyimaxon opa Hazrat Navoiy ijodini dildan sevgan va shahzoda Farhodisfat fidoyi mehnat bilan bu betimsol daho ijodkorni elga sevdirdigan olimadir. Shu boisdan Navoiyni sevgan inson bevosita Suyimaxon opani sevib qolar edi, Suyimaxon opani ko'rgan inson uning go'zal yuzi ko'zlarida Navoiy ma'rifati quyoshidan yoqqan nurlarni ko'rar edi. Hayotni sevar edilar. O'zlariga «O'zbekiston Qahramoni» unvoni berilgan majlisda, davlatimiz Prezidenti huzurida Alisher Navoiyning: «Xushdurur bog'i koinot guli, borchadin xushroq hayot guli» baytini o'qigan edilar.

Dilorom SALOHIIY,
Samarqand davlat chet tillar instituti
professori, filologiya fanlari doktori,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
yoshlar murabbiysi.



Ismatullo Yo'ldoshev jamiyatda o'ziga xos iz qoldirib ketdi. Uning Qo'rg'on-cha qishlog'idagi tabiat go'zalligidan zavq olgan, Xudo bergan iqtidori bilan uning tasvirini chizishga intilgan o'spirin Toshkentda ToshDUning yuridik fakultetida o'qigan bo'lsa-da, poytaxtdagi adabiy muhitni afzal bildi.

O'z sohasida tergovchilik, prokurorlikni binoyidek uddalab, hamkasblari o'rtasida yaxshigina martabaga erishdi. Ammo qalamni qo'ldan qo'ymadi: tinmasdan ijod qildi. She'rlar, she'riy drama, povest, kinossenariylar yozdi, Yozuvchilar uyushmasiga a'zo bo'ldi.

Hayot bo'lganida I.Yo'ldoshev bugun 70 yoshga to'lardi. Uning dilbar she'rlari, barcha asarlari hamon o'qilmog'da. Demak, u oramzoda yashayapti.

O'T BILAN O'YNASHIB
ULAR PARVONA

*Afv etish san'atin o'rgangan odam,
Jazo usullarin bilar mukammal...
Yomonlik shunday bir ilm, buyuksan -
Yashasang o'shanga qilmasdan...*

*Bugun sen hukamo, ertaga o'zga,
Bir so'zga qirg' yolg'on o'pirib qo'shar,
Maymunlar yig'lasa bir kun holingga,
Shunda tushunasan men aytgan so'zga.*

*Savobim yonma-yon gunohim bilan,
Azobim yonma-yon shu ohim bilan.
Insonni tergaqog eng og'ir savdo,
Chaqirsang borurman guvohim bilan.*

*Qismatida ne bo'lsa, bandang shungadir soyim,
Amringsiz bo'lmagaydir yerda qiyomat qoyim.
O'n sakkiz ming olamning Sarvari yagonasan,
O'zbekiston - bolangni o'zing asra, Xudoyim.*

*Vatansizlik dini etadi vayron,
Xohi musulmonsan, xoh kofir bo'lsang.
Eng og'ir kulfat shu: bo'lmagil hayron,
O'zing o'z uyingda musofir bo'lsang.*

*Seni tushunganga bergil joningni,
Qizg'anma mol-dunyoy, burda noningni.
Dushmaning do'st bo'lib, do'stlaring sotsa,
Sekin yig'ishtirgin jomadoningni...*

*Amalga erishsang, o'zni unutma,
Xush kalom, halol rizq, so'zni unutma.
Egningda shohona libos bo'lsa-da,
Jandai julingni, bo'zni unutma.*

*Dunyoning aldovi molu mulk, amal,
Nafsing yuragingni qilmasin qamal.
Sengacha bu jahon ko'plarni ko'rdi,
Vafosi bo'lmadi hech vaqt, hech mahal.*

*Nodonga erk bersang, ko'pirib jo'shar,
Bir so'zga qirg' yolg'on o'pirib qo'shar,
Tuyaga minginu uzoqni ko'zla,
Osmonga tupursang, boshingga tushar.*

*Vaqt o'tib, umringga to'lsa paymona,
Sig'massan tirlik nomli ayvona.
Qanoti bo'lsa ham olis ketolmas,
O't bilan o'ynashib, o'lar parvona.*

*Zamindan qudratni olmasa chinor,
Bunchalik bo'lmasdi adl, purviqor.
Chinordek osmonga bo'yab tursang ham,
Zamindan oyog'ing uzmagil zinhor.*

*Yigitlik faslida omad bo'lsa yor,
Nishonni to'g'ri ol, ketmasdan mador.
Keksalik domiga tutqun bo'lganda,
Behuda zo'riqib, etma jonni xor.*

*Yot elda somoning bug'doy bo'lmagay,
O'z yurtning ko'rkidek chiroy bo'lmagay.
Vatanni qadrla, mukarram tutgil,
O'zganing qarg'asi humoy bo'lmagay.*

*Cho'pon ziyrak bo'lsa, podasi omon,
Nafsini o'ylagan kimsa eng yomon.
Avom bir-biriga qilmasa shafqat,
O'shanda teskari aylanan zamon.*

KELMADING,
YOR

*G'amdin ko'zlarimga yosh keldi, ko'ndim,
Gohi ig'volardan tosh keldi, ko'ndim,
Mendan hamma sabr, dosh ketdi, ko'ndim,
Dardimni olgani kelmading-a, yor?*

*Boshimga tushmagan balo qolmadi,
Bechora vujudim chidab tolmadi,
Xudoyim jonimni olsa olmadi,
Qanday azobdaman... bilmading-a, yor?*

*Sensiz yuragimni ovutdim aldab,
Kelar, dedim kelmas yo'lingga qarab.
Diydor ilinjida yuribman yashab,
Hamon kutmoqdaman... kelmading-a, yor?*

*Sensiz o'zligimdan butunlay bezib,
Hijron libosida yuribman kezib.
Ezilgan ruhimni sen battar ezib,
Aqalli bir bora kelmading-a, yor?*

*Charchadim dunyoning kulfatlaridan,
Minnatli, hasadgo'y ulfatlaridan,
Do'st-u-dushmanlarning ofatlaridan,
To'ydim... ado bo'ldim, bilmading-a, yor?*

*Unutaman dedim, bag'rimni tilib,
Yashashga kuchim yo'q, ahvolim abgor.
Bir og'iz tasalli so'zga zor qilib,
Yoningdaman, deya aytmading-a, yor?*

Ismatullo YO'LDOSHEV,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
a'zosi.

SHU OYDA
TAVALLUD
TOPGANLAR

9-MAY

Sulaymon HUSAINOV
- 1948-yilda Jomboy tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist.

Mavlon JO'RAQULOV
- (1932-2020) Nurota tumanida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi.

Tolib NAZAROV - 1956-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Yunon-rim kurashi bo'yicha sport ustasi. O'zbekiston va xalqaro sport musobaqalari g'olibi va sovrindori. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sport ustasi.

10-MAY

Eliboy TANIYEV - 1941-yilda Past Darg'om tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan paxtakor.

Vahob EGAMOV - (1925-1995) Forish tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq maorifi xodimi. Tilshunos olim.

Ziyodulla MUQIMOV - 1942-yilda Kattaqo'rg'on tumanida tug'ilgan. Yuridik fanlari doktori.

Hotam TO'RAYEV - (1941-2012) Samarqand tumanida tug'ilgan. Texnika fanlari doktori.

Mamad ALIYEV - 1934-yilda Toyloq tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 985 nusxada chop etildi. Buyurtma 247. Hajmi 4 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

D.TO'XTAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 1772010667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda